

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA  
SUV XO'JALIK VAZIRLIGI**

**ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI**

**IQTISODIYOT VA BOSHQARUV FAKULTETI**

**FERMER XO'JALIGINI BOSHQARISH TA'LIM YO'NALISHI**

**Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti va boshqaruv kafedrası**

« T A S D I Q L A Y M A N »  
fakultet dekani \_\_\_\_\_  
ifn dots X.X.KAMOLOV  
« \_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2015yil

« Ximoyaga ruxsat etaman »  
kafedra mudiri \_\_\_\_\_  
dotsent. O.A.SHermatov  
« \_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2015 yil

**Fermer xo'jaligini boshqarish va Yuritish ta'lim  
yo'nalishining bitiruvchisi**  
Boynazarov Elmurodning



Mavzu: ***Buloqboshi tumanidagi “A.Abdupattayev” fermer  
xo'jaligini moddiy texnik ta'minotini yanada mustahkamlash  
omillari.***

BMI rahbarlari; \_\_\_\_\_ *ass.D.Ahmadaliyeva*  
\_\_\_\_\_ *B.Absoliyev*  
Maslahatchi; \_\_\_\_\_ *kat.o'qt.O.Qodirov*  
Bajaruvchi; \_\_\_\_\_ *E.Boynazarov*

Andijon - 2015yil

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI  
ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI  
IQTISODIYOT VA BOSHQARUV FAKULTETI  
QISHLOQ XO'JALIK IQTISODIYOTI VA BOSHQARUV KAFEDRASI

“T A S D I Q L A Y M A N”

Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti va boshqaruv  
kafedrasining mudiri

dotsent SHermatov O, A. \_\_\_\_\_

«10» sentyabr 2014 y.

**Fermer xo'jaligini boshqarish va Yuritish ta'lim yo'nalishining bitiruvchisi**  
***Boynazarov Elmurodga***  
**bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun**

# ТОПШИРИК

**1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi:** *institut rektorining*

*«10» sentabr 2014 yildagi 275 St(A)- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.*

BMI mavzusi: *Buloqboshi tumanidagi “A.Abdupattayev” fermer xo'jaligini moddiy texnik ta'minotini yanada mustahkamlash omillari.*

**Bitiruv malakaviy ishni tugatish vaqti:** *«4» iYun 2015 yil.*

**2. Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi.** *Kirish, 3 ta bobdan iborat asosiy qism, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.*

**3. Bitiruv malakaviy ishni bajarish uchun kerakli ma'lumotlar.** *Agrar islohatlarni chukurlashtirishga oid bo'lgan huquqiy qonunlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, mavzuga oid adabiyotlar, internet manbalari, hamda BMI ob'ekti bo'yicha 2012-2014 yillar uchun ishlab chiqarishning iqtisodiy ko'rsatkichlari, biznes rejalari, yillik hisobotlari va mavzuga oid bo'lgan boshqa ma'lumotlar.*

**4. Bitiruv malakaviy ishda foydalaniladigan jadvallar.** *Bitiruv malakaviy ishida mavzuning mohiyatini yoritishga yordam beradigan 10-11 ta jadvallarni tayyorlanishi ko'zda tutilgan bo'lib, ulardan kamida 3 tasi bevosita himoya jarayonida foydalaniladi.*

<i>Bitiruv malakaviy ishning asosiy savollari</i>	<i>Baja rilish mud datlari</i>	<i>BMI raxbarning F.I.SH</i>	<i>Imzo</i>
<i>Kirish</i>	<i>25.11.2014</i>	<i>Assistent D.Ahmadaliyeva</i>	
<b><i>1-BOB. Moddiy-texnika resurslaridan foydalanishning nazariy asoslari</i></b>			
<i>1.1. Moddiy-texnika resurslari haqida tushuncha, ularning ahamiyati, xususiyatlari va turkumlashtirilish</i>	<i>20.12.2014</i>	<i>Assistent D.Ahmadaliyeva</i>	
<i>1.2. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik hamda ulardan foydalanganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi</i>	<i>23.01.2015</i>	<i>Assistent D.Ahmadaliyeva</i>	
<b><i>2-BOB. Moddiy-texnika resurslaridan foydalanishning hozirgi holati va uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.</i></b>			
<i>2.1 Buloqboshi tumanidagi A.Abdupattayev fermer xo'jaligini joylashgan o'rni va tabiiy iqtisodiy sharoiti.</i>	<i>17.02.2015</i>	<i>Assistent D.Ahmadaliyeva</i>	
<i>2.2. Buloqboshi tumanidagi «A.Abdupattayev» fermer xo'jaligining moddiy texnika vositalardan foydalanib erishilgan iqtisodiy ko'rsatkichlari taxlili.</i>	<i>04.03.2015</i>	<i>Assistent D.Ahmadaliyeva</i>	
<b><i>3-BOB. Moddiy-texnika resurslaridan foyda-lanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish istiqbollari.</i></b>			
<i>3.1. Agrar ishlab chiqarishni modernizatsiyalash sharoitida moddiy-texnika resurslaridan oqilona foydalanib, mahsulot tannarxini pasaytirish.</i>	<i>03.04.2015</i>	<i>Assistent D.Ahmadaliyeva</i>	
<i>3.2. «A.Abdupattayev» fermer xo'jaligida moddiy-texnika resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari</i>	<i>02.05.2015</i>	<i>Assistent D.Ahmadaliyeva</i>	
<i>Xulosa va takliflar</i>	<i>24.05.2015</i>	<i>Assistent D.Ahmadaliyeva</i>	
<i>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.</i>	<i>2.06.2015</i>	<i>Assistent D.Ahmadaliyeva</i>	

BMI raxbari:

Maslahatchi:

*ass. D.Ahmadaliyeva*

*kat.o'qt.O.Qodirov*

## ***M u n d a r i j a***

<i><b>№</b></i>	<i><b>Mazmuni</b></i>	<i><b>Betlar</b></i>
	<i>Kirish.</i>	3
<b><i>1-BOB. Moddiy-texnika resurslaridan foydalanishning nazariy asoslari</i></b>		
1.1	<i>Moddiy-texnika resurslari haqida tushuncha, ularning ahamiyati, xususiyatlari va turkumlashtirilish</i>	9
1.2	<i>Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik hamda ulardan foydalanganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi</i>	17
<b><i>2-BOB. Moddiy-texnika resurslaridan foydalanishning hozirgi holati va uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.</i></b>		
2.1	<i>Buloqboshi tumanidagi «A.Abdupattayev» fermer tabiiy-iqtisodiy sharoitlari va moddiy-texnika resurslari tavsifi</i>	28
2.2	<i>Buloqboshi tumanidagi «A.Abdupattayev» fermer xo'jaligining moddiy texnika vositalardan foydalanib erishilgan iqtisodiy ko'rsatkichlari taxlili.</i>	41
2.3	<i>Jalaquduq tumanidagi Osuda oqshom fermer xo'jaligida paxta yetishtirish texnologiyasi.</i>	57
<b><i>3-BOB. Moddiy-texnika resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish istiqbollari.</i></b>		
3.1	<i>Agrar ishlab chiqarishni modernizatsiyalash sharoitida moddiy-texnika resurslaridan oqilona foydalanib, mahsulot tannarxini pasaytirish.</i>	68
3.2	<i>«A.Abdupattayev» fermer xo'jaligida moddiy-texnika resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari</i>	
	<i>Xulosa va takliflar.</i>	74
	<i>Foydalanilgan adabiyotlar.</i>	77

## **KIRISH**

**Mavzuning dolzarbligi.** Mamlakat iqtisodiyotida salmoqli o'rinni egallaydigan qishloq xo'jaligini rivojlantirishga mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab alohida e'tibor berildi. Chunki qishloq xo'jaligi aholini oziq-ovqat mahsulotlari, sanoat korxonalarini xom-ashyo bilan ta'minlash, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari uchun potentsial bozor sifatida katta ahamiyatga ega. Respublika qishloq xo'jaligida maxsulot yetishtirish uning qayta ishlash jarayonida iqtisodiy samaradorlikni talab darajasida muntazam oshirib borish eng dolzarb vazifalardan hisoblanib bu maqsadni muvaffaqiyatli xalq etish harajatlardan samarali foydalanish asosida maxsulot tannarxini pasaytirish bilan bevosita bog'liqdir.

Fermer xo'jaligi rivojlangan agrar industrial mamlakatlarning ko'p yillik tajribalarida o'zining samaradorligi, raqobatbardoshligi, bozor kon'yunkturasiga tez moslasha olishi kabi xususiyatlarini to'la namoyon etdi. SHunga ko'ra, O'zbekistonda ham fermer xo'jaliklarining rivojlanishiga katta e'tibor qaratilib, ular faoliyatining zarur iqtisodiy shart-sharoitlari yaratildi, me'yoriy-huquqiy asoslari ishlab chiqildi.

Ma'lumki, biz qishloq xo'jaligini isloh etishda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilashga alohida e'tibor bermoqdamiz. Bu vazifa eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Chunki, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning samaradorligi, mamlakatimizning iqtisodiy va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, nafaqat qishloq mehnatkashlari, balki butun O'zbekistonimiz aholisining moddiy farovonligini oshirish bebaho boyligimiz bo'lgan yerimizning unumdorligi, uning sifatini muntazam yaxshilab borish bilan uzviy bog'liqdir.

O'tgan davrda bu borada ko'rilgan choralar natijasida 1 million 700 ming gektar sug'oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilandi. Bu jami ekin ekiladigan maydonlarning yarmidan ziyodi demakdir. Ana shunday ishlar tufayli sizot suvlari eng og'ir darajada, ya'ni, 2 metrgacha Yuzada joylashgan yerlar

qariyb 500 ming gektarga yoki uchdan biriga kamaydi, kuchli va o'rtacha sho'rlangan yerlar esa 100 ming gektarga yoki 12 foizga qisqardi. Melioratsiya tadbirlari amalga oshirilgan ekin maydonlarida paxta hosildorligi gektariga o'rtacha 2-3 tsentner, boshqoli don ekinlari bo'yicha esa 3-4 tsentnerga oshgani bu borada erishgan eng muhim natijamizdir.

Qishloq xo'jaligini tarkibiy o'zgartirish haqida so'z Yuritganda, avvalo, paxta ekiladigan yerlarni optimallashtirish va boshqoli don ekinlari, sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik uchun ajratilgan maydonlarni kengaytirish hisobidan ekin maydonlari tarkibida o'zgarishlar amalga oshirilganini qayd etish joiz.

Masalan, Andijon, Kosonsoy, CHortoq, O'rta CHirchiq, O'zbekiston va Buvayda tumanlarida paxta ekin maydonlari qisman qisqartirildi, Asaka, YAngiyo'l va Jomboy tumanlarida paxta ekishdan butunlay voz kechildi. SHu asosda paxtadan bo'shagan 30 ming gektardan ortiq sug'oriladigan yerda don ekinlari, sabzavot, kartoshka yetishtirish yo'lga qo'yildi, bog' va uzumzorlar barpo etildi. Natijada 2012-2014 yillarda paxta yetishtirish hajmi saqlangan holda, sabzavot yetishtirish 16,3 foiz, poliz ekinlari 16,6 va meva yetishtirish qariyb 21 foizga o'sdi.

2010-2014 yillar davomida qariyb 50 ming gektar maydonda yangi bog'lar, jumladan, 14 ming gektardan ortiq maydonda intensiv bog'lar, 23 ming gektarda uzumzorlar yaratildi. Intensiv bog'lar tashkil etish uchun Polsha, Serbiya va boshqa mamlakatlardan 6 milliondan ziyod ko'chat olib kelindi.

Bunday bog'larning ko'plab afzalliklarga ega ekani bugungi kunda amalda namoyon bo'lmoqda. Misol uchun, oddiy mevali daraxt ekilganidan boshlab dastlabki hosilini berguniga qadar odatda 4-5 yil o'tadi. Intensiv bog'dorchilikda esa daraxt ikkinchi-uchinchi yildayoq hosilga kiradi. 2011 yilda yaratilgan bog'larning har gektaridan 2014 yilning o'zida o'rtacha 300 tsentnerdan hosil olingani va hosildorlik yil sayin ko'payib borayotgani buni tasdiqlaydi.

Zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va fermerlarni Yuqori unum bilan ishlaydigan qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash hisobidan qishloq xo'jaligi

ishlab chiqarishida intensiv usullarga o'tish ushbu sohani barqaror va samarali rivojlantirishda eng muhim yo'nalish hisoblanadi.

Buni avvalambor iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlarning, mamlakatimiz bir paytlardagi agrar respublikadan bosqichma-bosqich ravishda sanoati rivojlangan zamonaviy davlatga aylanib borayotganining yaqqol tasdig'i sifatida qabul qilishimiz darkor.

Mustakillik sharofati bilan Uzbekiston Respublikasi xalk xujaligining asosiy tarmogi bulgan agrar soxani rivojlantirishda kator iktisodiy isloxatlar olib borildi. Kishlok xujaligida mulkchilikka asoslangan erkin tovar ishlab chikaruvchi sub'ektlar shakllandi. Agrar soxadagi xujalik Yuritishning bu turli shakllari koorparativ (shirkat), fermer xujaligi, dexkon xujaliklari bulib, respublika konunchilik organlari tomonidan ularning xukukiy asoslari yaratilib, xalk muxokamasidan keyin konuniy asos sifatida amalyotda uz ijobiy natijalarini bermokda.

Muxtaram Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chikilgan davlatning ijtimoiy-iktisodiy rivojlanishi dasturilarining asosi bulgan bozor va bozor munosabatlari asosida xar bir tarmokni rivojlantirish orkali Yukori samarali natijalarga erishish kuzda tutilgan. Ayniksa, agrar tarmokni rivojlantirishga bu dasturning bajarilishi uz samarasini berib kelmokda.

Avvalo, dexkonning ishlab chikarishga va mulkka egalik xissining ortishi, erkin iktisodiy faoliyat Yuritishi, daromad olishi, uni uz imkoniyatlarida erkin taksimlanishi xamda tasarruf etish imkoniyatini yaratildi. Respublika agrar soxasida faoliyat Yuritayotgan fermer xujaliklari boshka sub'ektlarga nisbatan, amalyotda uzining bir kancha ijobiy xamda iktisodiy ustunliklarini kursatadi. Bu esa bozor munosabatlarida kishlok xujalik maxsulotlarini yetishtirishni kupaytirish va uning samaradorligini oshirishdagi afzalliklari bilan bugungi istikbolli xalk xujalik Yunalishiga mos kelishini inobatga olib, Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-martdagi «Kishlok xujaligida isloxatlarni chukurlashtirishning asosiy Yunalishlari tugrisida»gi PF-3226-sonli Farmoni kabul kilinib, unda fermer xujaliklarini rivojlantirish ustuvor Yunalish kilib bergilandi.

Farmonni amalyotga tatbik kilish buyicha fermer xujaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chikarish kuzda tutildi.

Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 27-oktyabrdagi PF-3342-sonli “2004-2006-yillarida fermer xujaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi tugrisida”gi Farmoniga asosan, Vazirlar Maxkamasining 2003-yil 30-oktyabrdagi 476-sonli “2004-2006-yillarda fermer xujaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari tugrisida”gi va 2004-yil 24-dekabrdagi 607-sonli “2005-2007-yillarda fermer xujaliklarini rivojlantirish chora-tadbirlir tugrisida”gi Karorlar kabul kilindi. Ushbu karorlar bilan kishlok xujalikligi maxsulotlari yetishtiruvchilarning asosiy shakli sifatida fermer xujaliklarini tashkil etish va ularning faoliyati uchun kulay shart-sharoit yaratish, shuningdek, kishlokda bozor infratuzilmasini kompleks rivojlantirish asosida masala kilib belgilandi.

Qishloq xo’jaligining o’zida keng ko’lamli o’zgarishlar va sifat jihatdan yangilanishlar Yuz bermoqda.

YUrtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo’jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o’ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo’lmish paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo’jaligi mahsulotlari yetishtirishni bir necha barobar ko’paytirish imkonini berdi. Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to’liq ta’minlashga zamin tug’dirdi, kerak bo’lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda. Xususan, g’alla yetishtirish 2000 yilga nisbatan 2 barobar, kartoshka – 3,1 marta, sabzavot – 3,2 barobar, uzum – 2 marta, go’sht va sut – 2,1 karra, tuxum – 3,4 barobar oshdi.

O’tgan 2013 yilda mirishkor dehqon va fermerlarimizning fidokorona mehnati bilan misli ko’rilmagan natijalarga erishildi – 7 million 800 ming tonna g’alla, 8 million 400 ming tonna sabzavot yetishtirildi. Mamlakatimizning ulkan xirmoniga 3 million 360 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi yetkazib berildi.

Qishloqlarimiz hayotida Yuksak natijalarga erishishda, avvalo, qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy shakli sifatida fermerlikni

yo'lga qo'yganimiz va uning rivoji uchun keng imkoniyatlar ochib berganimiz hal qiluvchi rol o'ynadi.

Bugungi fermer xo'jaliklari samarali faoliyat Yuritish uchun o'z ixtiyorida ijara asosidagi yetarlicha ekin maydonlariga ega bo'lgan, Yuksak samarali zamonaviy texnika bilan ta'minlangan, ilg'or texnologiyalarni puxta egallagan yirik xo'jaliklardir. Muxtasar aytganda, ular qishloqlarimizning tayanch ustunidir.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan birga, ularni chuqur qayta ishlash, qurilish ishlarini amalga oshirish va qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish kabi yo'nalishlarda samarali faoliyat ko'rsatmoqda va o'z istiqbolini topmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda bunday fermer xo'jaliklarining soni 18 mingdan ziyodni tashkil etmoqda.

YUrtimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning kelajagi haqida gapirganda, yer va suv resurslari bo'yicha imkoniyatlarimiz cheklanganini hisobga olib, bu borada yagona to'g'ri yo'l – qishloq xo'jaligini intensiv asosda rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash, seleksiya ishlarini chuqurlashtirish, Yuksak samarali zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va suvdan oqilona foydalanish, eng muhimi – dehqon va fermerlarning dardi bilan yashash, desam, o'ylaymanki, barchangiz mening fikrimga qo'shilasiz.

Faqat yerga mehr, uning unumdorligini oshirish va birinchi navbatda dehqon va fermerga doimiy e'tibor, ularning manfaati haqida g'amxo'rlik qilish – bu qishloqni va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish bo'yicha biz tanlagan yo'ldir.

Qishloq xo'jaligidagi islohotlar jarayonida bozor munosabatlari bosqichma bosqich shakllanib, davlat bu Yurtmasi o'rnatilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining turi asta-sekin qisqarib bordi. Hozirgi kunda faqat paxta va g'alla mahsulotlarini davlat ehtiyojlari uchun yetishtirish tartibi o'rnatilgan. Strategik xom ashyo bo'lgan paxtani fermer xo'jaliklari tomonidan bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan shartnomaviy munosabatlar asosida yetishtirilmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini mutanosib rivojlantirish, uning samarali tarkibiy tuzilmasiga ega bo'lish va shu orqali barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish

Vatanimiz taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun esa eng avvalo iqtisodiyotning real sektorini jadal rivojlantirish zarur bo'ladi.

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoq va sohalarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash tadbirlarining keng ko'lamda amalga oshirilishi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq, bu boradagi jiddiy muammo – ayrim mahsulotlarimiz, jumladan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxining Yuqori darajada qolayotganligi ularning raqobatdoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Moddiy-texnika resurslarining mahsulot yetishtirishda, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ahamiyati ulkan. SHuning uchun ularni yaratish, barpo etish, takror ishlab chiqarish zarur. SHu bilan birga ular mehnatning xarakterini o'zgartirib, unumdorligini Yuksalishini ta'minlaydi. Masalan, xo'jalikning moddiy-texnika bazasi qanchalik mustahkam (u zamonaviy mashinalar, traktorlar, kombaynlar, stanoklar) ta'minlangan bo'lsa, barcha ishlar shu texnika vositalari yordamida bajarilishi ta'minlanadi. Mehnatning industrlashganligini ifodalovchi bunday sharoit natijasida qo'l kuchi bilan bajariladigan ishlar kamayadi. Bu mehnatning xarakteri o'zgarayotganligidan dalolat beradi, ayni paytda ishchi-xizmatchilarning bilimi, malakasi oshirilishi talab etadi.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari o'ziga xos bir qancha xususiyatlarga ega. Ayrim moddiy resurslar tabiat mahsuli hisoblanadi. Jumladan, yer, suv, harorat, yog'ingarchilik. Ularning barpo etilishi hamda takror ishlab chiqarilishi ko'proq tabiatga bog'liq. Lekin qishloq xo'jaligida band bo'lgan fuqarolar o'zlarining bilimlarini, tajribalarini hamda tadbirkorligini ishga solgan, fan-texnika Yutuqlaridan, ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda bu tabiiy omillardan samarali, o'rinli foydalanishga harakat qilib, aksariyat hollarda yaxshi natijalarga erishadilar. SHuning uchun ham tarmoq ishlab chiqarishi tabiatga ham bog'liq.

Davlat ehtiyojlari uchun paxta yetishtirayotgan fermer xo'jaliklarida iqtisodiy

samaradorlik ko'rsatkichlarini chuqur o'rganish talab etilmoqda. Chunki paxta yetishtirish uchun zarur bo'lgan yoqilg'i, mineral o'g'itlar, urug'lik, texnik servis xizmatlari kabi moddiy-texnika resurslarining baholari erkin narxlar tufayli Yuqori darajada o'sib ketmoqda. Bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga noqulay bo'lgan nomutanosibliklarni keltirib chiqarmoqda. Paxta tannarxini kamaytirish va samaradorlikni oshirish, ishlab chiqarish miqdorini yanada ko'paytirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Fermer xujaliklarini rivojlantirishning anik chora –tadbirlari ishlab chikirib, uni boskichma-boskich amalga oshirish tugrisida istikbolli Yunalishlar ishlab chikildi. Mamlakatimizni ijtimoiy-iktisodiy rivojlantirishda fermer xujaliklarining maxsulot ishlab chikarish faoliyatini tashkil etish, unga xukukiy asos yaratish, tayyorlov, ta'minot va servis xizmati kursatuvchi korxonalar urtasidagi iktisodiy munosabatlarni yaxshilash ishlari amalga oshirilmokda. Sir, emaski, ayrim tayyorlov, ta'minot va servis xizmatlari korxonalari oldiga kuygan vazifalari yetarli darajada bajara olmay kelmokda. Tobora yer maydonlari kengayib, optimallasib borayotgan fermer xo'jaliklarida bu muammo yanada yaqqol seziladi. Endilikda esa mavjud ilmiy adabiyotlardagi turli qarashlar va kontseptsiyalarni o'rganish asosida bozor iqtisodiyoti sharoitida ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan yangi izlanishlarni, qarashlar va mulohazalarni ilgari surish zaruriyatga aylandi Endilikda ushbu infratuzilmani rivojlantirish orkali fermer xujaliklari faoliyatini yaxshilash asosiy vazifamiz bulib koldi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilinganda, biz tanlagan mavzu hozirgi kunda ilmiy va amaliy tadqiqotlarni talab qiluvchi dolzarb masala hisoblanadi. Bu esa muammoning tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga sabab bo'ldi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi fermer xo'jaliklarida moddiy resurslaridan foydalanishni rivojlantirish ko'rsatkichlarini tahlil qilish, Buloqboshi tumanidagi «A.Abdupattayev» fermer xo'jaligini moddiy texnik ta'minotiniyanada mustaxkamlash omillari bo'yicha fikr-mulohazalarni, xulosalarni va takliflarni

ishlab chiqishdir. Asosiy maqsadga erishish uchun bitiruv malakaviy ishida quyidagi asosiy vazifalar rejalashtirilgan:

1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida fermer xo'jaligining agrar iqtisodiyotda tutgan o'rni va ahamiyatini asoslash.

2. Buloqboshi tumanidagi «A.Abdupattayev» fermer xo'jaligi faoliyatini o'rganish va tahlil etish asosida moddiy resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

3. Buloqboshi tumanidagi ««A.Abdupattayev»» fermer xo'jaligida moddiy resurslari tarkibidagi texnika va mexnat resurslaridan foydalanib, paxta va g'alla yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillarini tahlil qilib, bu bo'yicha fikr-mulohazalarni, xulosalarni va takliflarni ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishida bildirilgan fikr va mulohazalardan, qilingan xulosalardan va berilgan takliflardan Buloqboshi tumanidagi «A.Abdupattayev» fermer xo'jaligida moddiy resurslaridan foydalanishni rivojlantirish omillaridan samarali foydalanish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin. BMI da bildirilgan fikr-mulohazalardan bundan tashqari ushbu hududda joylashgan va ixtisosligi mos keladigan boshqa fermer xo'jaliklarida ham foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy qism, xulosa va takliflar xamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslanib, bitiruv malakaviy ishini maksadi, vazifalari va uning tarkibi asoslangan. Asosiy qismda 3 ta bob 7 paragrafdan iborat bo'lib, ularda o'quv va ilmiy adabiyotlar sharhi, asosiy vositalardan foydalanishning ilmiy nazariy asoslari keltirilib, Buloqboshi tumanidagi «A.Abdupattayev» fermer xo'jaligida moddiy resurslaridan foydalanishni rivojlantirish omillari o'rganilib, tahlil etilgan. Ishning xulosa qismida bo'yicha Buloqboshi tumanidagi «A.Abdupattayev» fermer xo'jaligini moddiy texnik ta'minotini yanada mustaxkamlash bo'yicha fikr-mulohazalar va takliflar ishlab chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatiga mavzuga oid bo'lgan qonunlar, Prezident

farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda I.A.Karimov asarlari, maxsus o'quv va ilmiy adabiyotlar, fermer xo'jaligining oxirgi uch yillik hisobotlari va fermer xo'jaligining biznes rejalari kiritilgan.

Bitiruv malakaviy ishi 87 betni tashkil etadi. Bitiruv malakaviy ishini yoritishda 11 ta jadvallar va 2 ta chizmadan foydalanildi.

## **1-BOB. Moddiy-texnika resurslaridan foydalanishning nazariy asoslari**

### **1.1. Moddiy-texnika resurslari haqida tushuncha, ularning ahamiyati, xususiyatlari va turkumlashtirilishi**

Davlatning, aholining hamda tashqi bozorning talablarini sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan qondirish uchun ularni yetishtirishni ko'paytirish ob'ektiv zaruriyat hisoblanmoqda. Buning uchun talab etilgan miqdorda turli xildagi resurslar mavjud bo'lishi kerak. Masalan, yer, suv, bino, inshootlar, mashinalar, traktorlar, o'rmon, bog'lar, chorva hayvonlari, tabiiy resurslar (yog'in, harorat) kimyoviy vositalar, mehnat resurslari. Lekin bu moddiy-texnika resurslari tarkibiga mablag'lar va boshqalar kirmaydi. Ular qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslarini tashkil etadi. SHu resurslar yordamida qishloq xo'jaligida turli xildagi ishlar, xizmatlar bajarilib, mahsulotlar yetishtiriladi. Ularning sifatini, holatini yaxshilash, yangilarini yaratish maqsadida fan-texnika taraqqiyoti amalga oshiriladi. SHuning natijasida serhosil, tezpishar navlar, sermahsul chorva zotlari, har tomonlama qulay va samarali hisoblangan texnikalar, ilg'or texnologiyalar yaratildi.

SHu resurslarning qishloq xo'jalik ishlab chiqarishidagi ahamiyati nihoyatda ulkan. CHunki barcha turdagi dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirishda yerdan foydalaniladi. Demak, yer bo'lmasa, Yuqoridagi mahsulotlarning yetishtirilishi ta'minlanmaydi. Mamlakatimiz dehqon chiligi sug'orishga asoslanganligi munosabati bilan suv resurslarining ahamiyati ulkan. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslarini iqtisodiy mazmuni, mohiyati va barpo etilishi hamda foydalanilishi bo'yicha 3-chizmadagi tartibda turkumlashtirish mumkin. Jumladan:

I – barpo etilishi bo'yicha;

II – ishlab chiqarishga munosabati bo'yicha;


III – ishlab chiqarishda qatnashishiga ko'ra;

IV – takror ishlab chiqarilishi bo'yicha.

Demak, qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari respublika xalq xo'jaligi resurslarining muhim qismi hisoblanadi. Ular mulk sifatida tarmoqning,

korxonalarining iqtisodiy negizini, asosini tashkil etadi. Korxonalarining moddiy-texnika bazasi mustahkam bo'lsa, ularda iqtisodiy jihatdan rivojlanish uchun asos mavjudligidan dalolat beradi. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari barpo etilishi bo'yicha tabiiy va iqtisodiy resurslardan iborat. Tabiiy resurslar yer, suv, o'rmon, chorva hayvonlari, issiqlik hamda yog'ingarchilik miqdoridan tashkil topadi. Ularning asosiy qismi davlat tasarrufida bo'lib, korxonalariga, fuqarolarga foydalanish uchun beriladi.

1-chizma



Iqtisodiy resurslar esa iqtisodiy potensialning tarkibiy qismi bo'lib, moddiy, moliyaviy hamda mehnat resurslaridan tashkil topadi. Qishloq xo'jaligini:

- moddiy resurslarga ishlab chiqarishning moddiy vositalari: binolar, inshootlar, mashinalar, traktorlar, kombaynlar, barcha turdagi kimyoviy vositalar, o'g'itlar, urug'liklar, yem-xashaklar, yoqilg'i, yog'lovchi, qurilish va boshqa materiallar kiradi.
- moliyaviy resurslariga davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'lar, xo'jaliklarning joriy, valYuta schyotlaridagi, g'aznadagi pullari, amortizatsiya fondi, aksiyalardan olayotgan foydalari, bank kreditlari hamda ichki va tashqi investitsiyalarini amalga oshirish natijasida olinayotgan mablag'lar, ta'sisshilar va boshqa manbalardan kelib tushayotgan mablag'lar kiradi.

Ularning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi o'rni va ahamiyati juda ulkan. Chunki takror ishlab chiqarish jarayonida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari talab darajasida yetishtirilishi hamda ish va xizmatlar ko'ngildagidek bajarilishi barcha resurslarning miqdoriga hamda sifatiga bog'liq. Respublika dehqonchiligi sug'orishga asoslanganligi sababli sug'oriladigan yerlar va suv resurslarining ta'siri juda katta. Tarmoqning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi, ishlab chiqarish jarayonlarining amalga oshirilishi asosan moliyaviy resurslar bilan bog'langan. SHunday ekan, kelajakda qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari talab darajasida barpo etilishiga alohida e'tibor berish zarur. Uni davlat, tarmoq va xo'jaliklar miqyosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari tarmoqda foydalaniladigan va foydalanilmaydiganlarga bo'linadi. Tarmoqda u yoki bu maqsadda foydalanilayotganlari – foydalanilayotgan resurslarni, tarmoqda mavjud bo'lib, ayrim ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra, vaqtincha foydalanilmayotganlari esa foydalanilmayotgan zahira resurslarni tashkil etadi. Foydalanilayotgan zahira resurslarga zahiradagi meliorativ yerlar, ayrim suv havzalaridagi suvlar, o'rmonzorlar kiradi.

Tarmoq korxonalarida foydalanilayotgan moddiy-texnika resurslari barcha resurslarning eng muhim qismi hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga ko'ra, quyidagicha guruhlariga bo'linadi:

- ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishlatiladigan, ya'ni qatnashadigan resurslar;
- ishlab chiqarishda bilvosita qatnashadigan resurslar.

Ishlab chiqarishda bevosita ishlatiladigan resurslar yordamida turli xildagi mahsulotlar ishlab chiqariladi, ishlar va xizmatlar bajariladi. Ularga ekin ekilgan yerlar, yaylov va pichanzorlar, ekinlarni sug'orish uchun sarflanayotgan suvlar, mashina, yer haydayotgan, ekinlarga ishlov berayotgan traktorlar, kombayn, mahsulotni ko'paytirish uchun sarflanayotgan kimyoviy vositalar, o'g'itlar, hayvonlarga berilayotgan yem-xashaklar, chorva hayvonlari, mevali daraxtlar va boshqalar kiradi. SHular yordamida ko'proq, yaxshiroq mahsulot yetishtirish ta'minlanadi. Korxonalarining ombor, idora binolari, ayrim inshootlari, texnikalari,

aloqa vositalari, kompYuterlari ishlab chiqarish jarayonida bilvosita qatnashadilar. Ularni mahsulot yetishtirishga aloqasi cheklangan.

Moddiy-texnika resurslarining mahsulot yetishtirishda, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ahamiyati ulkan. SHuning uchun ularni yaratish, barpo etish, takror ishlab chiqarish zarur. SHu bilan birga ular mehnatning xarakterini o'zgartirib, unumdorligi Yuksalishini ta'minlaydi. Masalan, xo'jalikning moddiy-texnika bazasi qanchalik mustahkam ( u zamonaviy mashinalar, traktorlar, kombaynlar, stanoklar bilan ta'minlangan bo'lsa), barcha ishlar shu texnika vositalari yordamida bajarilishi ta'minlanadi. Mehnatning industrlashganligini ko'rsatuvchi bunday sharoit natijasida qo'l kuchi bilan bajariladigan ishlar kamayadi. Bu mehnatning xakteri o'zgarayotganligidan dalolat beradi, ayni paytda ishchi-xizmatchilarning bilimi, malakasi oshirilishi talab etadi.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari o'ziga xos bir qancha xususiyatlarga ega. Ayrim moddiy resurslar tabiat mahsuli hisoblanadi. Jumladan, yer, suv, harorat, yog'ingarchilik (ular haqida yer va suv resurslari masalalariga bag'ishlangan bobda batafsil to'xtalib o'tilgan). Ularning barpo etilishi hamda takror ishlab chiqarilishi ko'proq tabiatga bog'liq. Lekin qishloq xo'jaligida band bo'lgan fuqarolar o'zlarining bilimlarini, tajribalarini hamda tadbirkorligini ishga solgan, fan-texnika Yutuqlaridan, ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda bu tabiiy omillardan samarali, o'rinli foydalanishga harakat qiladilar, aksariyat hollarda yaxshi natijalarga erishadilar. SHuning uchun ham tarmoq ishlab chiqarishi tabiatga ham bog'liq.

Qishloq xo'jaligi moddiy-texnika resurslari tarkibiga chorva hayvonlari, o'simliklar, mevali daraxtlar qatnashishi tarmoqning muhim xususiyati ekanligiga alohida e'tibor berish, shuningdek, sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilgan moddiy-texnika vositalari, traktorlar, mashinalar, mexanizmlar, dastgohlar, kimyoviy vositalar, yoqilg'i, yonilg'i hamda yog'lovchi materiallar va boshqalarning ishtirokini ham e'tiborga olish lozim. Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilgan moddiy-texnika vositalari, ma'lumki, inson mehnati natijasida yaratiladi. Ulardan foydalanish samaradorligi tarmoq ishlab chiqarishining mavsumiyligiga ham bog'liq.

Qishloq xo'jaligining mustahkam moddiy-texnika bazasini yaratishda Yuqorida ta'kidlangan xususiyatlarni e'tiborga olish,shuningdek, ishlab chiqarishning joylashganligi hamda ixtisoslashganligiga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. SHu bilan birga ilg'or texnologiyalarning joriy etilishini hamda texnologik jarayonlarda bajariladigan barcha ishlarni mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish imkonini yaratish lozim.

Yuqoridagi talablarga javob beradigan moddiy-texnika resurslari asosan quyidagi manbalar hisobiga barpo etiladi:

- korxonaning mablag'lari;
- chetdan jalb etiladigan mablag'lar.

Birinchisiga korxonalarining mahsulot sotish, ish va xizmatlar bajarish natijasida olayotgan pul daromadlari, taqsimlanmagan foydadan ajra tilayotgan mablag', amortizatsiya fondidan ajratilayotgan mablag', amortizatsiya fondi hisoblangan mablag', foydalanilmayotgan ayrim ishlab chiqarish vosi talarini sotishdan, ijaraga berilayotgan vositalardan foydalanish natijasida va boshqa manbalardan olingan mablag'lar kiradi. Bunda xo'jaliklarning aksiyalar chiqarib sotishdan olayotgan pul daromadlari ham muhim manba hisoblanadi. Lekin bu masala respublika qishloq xo'jaligida hozircha hal etilgani yo'q. Juda muhim bo'lgan bu masalani kelajakda, albatta, hal etish zarur.

Ikkinchisiga irrigatsiya-melioratsiyaga, ekologiyaga hamda ijtimoiy sohalarga davlat bYudjetidan ajratilayotgan mablag'lar, davlat ehtiyojlari uchun sotib olinayotgan mahsulotlarga davlat hisobidan ajratiladigan transh mablag'lari, tijorat institutlarining kredit mablag'lari, turli manbalardan jalb etilayotgan investitsiyalar, homiylarning, hamkorlarning mablag'lari va boshqa manbalardan jalb etiladigan mablag'lar kiradi. Bu mablag'lar hisobiga qishloq xo'jalik korxonalari moddiy-texnika vositalarini ularni ishlab chiqaruvchilarning bevosita o'zlaridan yoki birjalardan, ko'rgazmalardan, auktsionlardan shartnomalar asosida sotib olib, moddiy-texnika bazalarini mustahkamlashlari, ayrim hollarda foydalanish uchun ijaraga olishlari mumkin. SHunday tartibda shakllantirilgan moddiy-texnika resurslaridan xo'jaliklar yil mobaynida to'liq va samarali foydalanishsa, barcha turdagi tadbirlarni vaqtida, sifatli amalga oshirishlari aniq.

Qishloq xo'jaligini ustuvor darajada rivojlantirish uchun uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash kerak. Tarmoqning moddiy-texnika resurslari shakllantirilishi, rivojlantirilishi, ulardan samarali foydalanish masalalari fan-texnika taraqqiyotiga va uning darajasiga bevosita bog'liq. Fan-texnika taraqqiyoti deganda, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan barcha fanlarning rivojlanishi, taraqqiy topishi, bilimli, malakali kadrlar tayyorlanishi natijasida samarali yangi texnikalar yaratilishi, mavjudlari esa takomillashtirilishini nazarda tutish lozim. Bu o'rinda ta'kidlash kerakki, fan rivojlanishi natijasida shu davrgacha bo'lmagan mutlaqo yangi fan – «Moddiy-texnika resurslari» ham yaratilishi mumkin. Bu jarayon fan-texnika inqilobidan dalolat beradi. Demak, fan-texnika taraqqiyoti inqilobi - intellektual ong rivojlanishining mahsulidir. Buning uchun intellektuallarni tayyorlaydigan ta'lim, ixtirochilik tizimini yangi bosqichga ko'tarish taqazo etiladi. Ular qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan qulay va samarali mashina, traktor, mexanizm, uskunalar yaratilishini, mavjudlari takomillashtirilishini, serhosil, tezpishar ekin navlari, sermahsul chorva zotlari,

ilg'or texnologiyalarni yaratadigan fanlarning, fan-texnika, texnologiya rivojlanishini ta'min-laydi. Natijada moddiy-texnika resurslarining miqdori oshadi, sifati yaxshilanadi.

Bu jarayonni respublikamiz misolida ham ko'rish mumkin. CHunonchi, fan-texnikani taraqqiy ettirish yo'lidan borilayotgan O'zbekistonda qishloq xo'jaligi uchun qishloq xo'jalik mashinasozlik sanoati korxonalarida yangi, sifatli haydov, ishlov beruvchi traktorlar, paxta teradigan mashinalar, kimyo sanoatida polietilen quvurlar, plyonkalar ishlab chiqarilmoqda. YOmg'irlatib, tuproq ostidan, tomchilatib sug'orish uchun yangi samarali texnikalar barpo etilmoqda. Bu hol qishloq xo'jaligida samarali, ilg'or texnologiyalar joriy etilishini ta'minlaydi.

Fan-texnika taraqqiyoti yagona davlat siyosati asosida kechishi, bu jarayonda qatnashuvchilarning tashabbuskorligi, tadbirkorligi ham uyg'unlashishi lozim.

Fan-texnika taraqqiyotining asosiy maqsadi yangi, samarali qishloq xo'jalik texnikalarini, ekologik talablarga javob beradigan kimyoviy vositalarni, yangi navlarni, zotlarni yaratish, mavjud vositalarni takomillashtirish, mehnatning xarakterini o'zgartirib, uning unumdorligini oshirish, ishlab chiqariladigan mahsulotlar miqdorini ko'paytirish, sifatini yaxshilash, ularni qayta ishlab, iste'molchilarga yetkazib berish orqali aholi, korxonalar va nihoyat, davlatning iqtisodiyotini Yuksaltirishdir.

Fan-texnika taraqqiyoti qishloq xo'jaligida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

- yangi yerlarni kompleks o'zlashtirish, zax va sho'rlangan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv bilan ta'minlanish tadbirlarini amalga oshiradigan ishlab chiqarish vositalarini yaratish, takomillashtirish;
- tezpishar, kam suv talab etadigan, sifatli va serhosil urug' navlarini, sermahsul chorva zotlarini yaratish;
- qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida amalga oshiriladigan barcha ish jarayonlarini avtomatlashtirish, elektrlashtirish, kimyolashtirish hamda

mexanizatsiyalashtirishni ta'minlaydigan vositalarni yaratish, mavjudlarini takomillashtirish;

- qishloq xo'jaligiga servis xizmatlarini ko'rsatish, tarmoqda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning zarur miqdorini qayta ishlab, sifatli saqlab, iste'molchilarga vaqtida, yaxshi holatda yetkazib berish qobiliyatiga ega bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlarini shakllantirish;
- qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining erkinlashtirilishini ta'minlovchi iqtisodiy mexanizmlarni yaratish va ularni hayotga izchillik bilan joriy etish;
- fan-texnika taraqqiyoti natijalarini qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barcha sohalariga o'z vaqtida joriy etish qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, faoliyat ko'rsatayotganlari rag'batlantirilishini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan mexanizmlarni yaratish.

Fan-texnika taraqqiyotining shu yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilishi natijasida qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika resurslarini yaratish, mavjudlarini esa takomillashtirish ta'minlanadi.

Fan-texnika taraqqiyoti natijasida yaratiladigan moddiy-texnika resurslari qishloq xo'jaligida yangi, samarali texnologiya vujudga kelishi, bu jarayon rivojlantirilishini ta'minlaydi. Bu texnologiyalar ish jarayonlarining belgilangan muddatda, sifatli bajarilishiga, mehnat unumdorligi oshishiga va xarajatlar kamayishiga olib keladi. Hozirgi vaqtda paxtachilikda «Andijon texnologiyasi» yaratilib, respublikada keng ko'lamda joriy etilmoqda. Bu usulda chigit avvaldan olib qo'yilgan pushtalarga respublikada ishlab chiqarilayotgan (dastlabki yillarda u Xitoy respublikasidan va Yutaga olib kelinar edi) plyonka ostiga ekilmoqda.

Natijada tuproq namligi va harorat saqlanib, chigitning tez unib chiqishiga erishilmoqda. Plyonkalardan foydalanish pushtada begona o'tlar paydo bo'lishini kechiktiradi. Bu hol birinchidan, yaganani, o'tlarni yo'qotish ishlarini kamaytirish, ikkinchidan, suv sarfini qisqartirish imkonini bermoqda.

CHigitni plyonka ostiga ekish natijasida paxta hosilining erta pishishi hamda uni qisqa muddatda Yuqori navlarda terib olish ta'minlanmoqda. SHu tufayli Andijon viloyatida paxta hosildorligi 1999-2002 yillarda o'rtacha 32 tsentnerni tashkil etdi. Bu, respublikada eng Yuqori ko'rsatkichdir. Viloyatda 1 ts. paxta yetishtirish uchun 9,8 ming so'm sarflanmoqda. Bu respublikadagi bu boradagi o'rtacha ko'rsatkichdan 13,6 foizga kam. Natjalar ilg'or texnologiyaning afzalliklarini bot-bot isbotlamoqda.

Bu o'rinda ta'kidlash kerakki, yangi texnologiyani qo'llash uchun shart-sharoit yaratish, uni amalga oshirish jarayonida ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Masalan, chigit ekish seyalkalari texnologiya talablari darajasida takomillashtirilmagan. Pushtaga yopilgan plyonka vaqtida, to'liq yig'ishtirib olinmay, dalalarda qolib ketayotgani tufayli tuproqning holatiga hamda ayrim bajariladigan ishlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirgi davrda ularni bartaraf etish borasida ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda va bu kabi kamchiliklar chigit plyonka ostiga ekiladigan dalalarni ekishga tayyorlash, ekish va undan keyingi amallarni bajarish jarayonida ham kuzatilmoqda. go'zalarni sug'orishda «Isroil texnologiyasi» ham joriy etilmoqda. Bu texnologiyaning asosiy maqsadi suvni tejashga qaratilgan. SHu usuldan foydalanish natijasida 1 ga paxta maydoniga 4-5 marta kam suv berish ta'minlanadi. Gollandiyada yetishtirilgan kartoshka urug'i ularning texnikalari bilan ekilib, o'simliklarga ham golland texnikalarida ishlov berilib, ularning hosili ham shu texnologiyalar bilan yig'ishtirib olindi. Bu jarayonda mahalliy tajribalardan ham keng foydalanildi. Natijada respublikada kartoshkachilik rivojlandi. Hozirgi davrda aholi iste'moli uchun chetdan kartoshka sotib olishga barham berilgan. CHorvachilik tarmoqlarida ham ilg'or texnologiyalar joriy etilmoqda. Ular vaqtni, mehnatni, mablag'ni tejash imkoniyatini beradi. Natijada mahsulot hajmi, mehnat unumdorligi oshishi va nihoyat, sof foyda summasi ko'payishi ta'minlamoqda. SHuning uchun samarali texnologiyalarni yaratishga, ularni hayotga tatbiq etishga doimo katta e'tibor berish lozim.

## 1.2. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik hamda ulardan foydalanganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi

Qishloq xo'jalik korxonalarini moddiy-texnika resurslari bilan talab darajasida ta'minlashga doimo katta e'tibor berilmoqda. Chunki bu sarflanadigan mehnat hamda mablag' xarajatlari kamayishi, mehnat unumdorligi Yuksalib, foyda summasi ko'payishi uchun imkoniyat yaratadi. Shunday ekan, qishloq xo'jalik korxonalarining moddiy-texnika vositalari bilan ta'minlanish va bu vositalardan foydalanish jarayonini va bu boradagi o'zgarishlarni bilish talab etiladi. Buning uchun bir qancha ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin. Eng avvalo, bu boradagi asosiy ko'rsatkich – jamoa, shirkat hamda qo'shma va davlat korxonalarining, hissadorlik jamiyatlarining moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash kerak. Ma'lumki, xo'jalik o'z faoliyatida amalga oshiradigan ishlarni tez va sifatli bajarishga intiladi, bu jarayonda texnika vositalari o'rtasida mutanosiblikni ta'minlashga alohida e'tibor beradi. Sababi – traktorlar ko'p, ularga tirkaladigan mexanizmlar kam yoki aksi bo'lsa, kutilgan samaraga erishib bo'lmaydi. Chorva hayvonlari ko'p bo'lib, yem-xashak kam bo'lishi ham foydasizdir. Demak, korxonalar samarali muvozanatdagi moddiy-texnika resurslari bilan talab darajasida ta'minlangan bo'lishlari kerak. Uning darajasini quyidagi formula yordamida aniqlash lozim:

$$MTR_{TDQ} = \frac{(E_k + (A\Phi_k - Ac) + A\Phi_k + BГ_k)}{KXe};$$

Bunda:  $MTR_{TD}$  – moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, so'm;

$E_k$  - qishloq xo'jalik yerlarining qiymati (so'mda);

$Afk$  - asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati (so'mda);

$As$  – asosiy vositalarning o'rtacha yillik eskirish summasi (so'mda);

$AF_k$  – aylanma vositalarning o'rtacha yillik summasi (so'mda);

$BG_k$ - bog'lar, tokzorlarning o'rtacha yillik summasi (so'mda).

Bu ko'rsatkich yordamida har bir xo'jalik ixtiyoridagi foydalanilayotgan 1 ga qishloq xo'jalik yeriga yoki ekin maydoniga qancha so'mlik moddiy-texnika resurslari to'g'ri kelayotganligi aniqlanadi. Uning miqdori talab, ya'ni me'yor darajasida bo'lishi kerak. Bu umumiy ko'rsatkich maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda boshqa aniq ko'rsatkichlar yordamida yanada aniqlashtiriladi.

Jumladan, xo'jalikning ta'minlanganlik darajasini, masalan, asosiy va aylanma fondlar yoki haydov, chopiq traktorlari bilan ta'minlanganlik darajasini shu ko'rsatkich tarkibidagi boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha ham alohida-alohida aniqlash mumkin. Ular ushbu ma'ruzalar matnining 7-bobida batafsil yoritilgan.

Masalan, korxonalarining energetik resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi. Uning miqdori xo'jalikdagi jami energetik resurslar miqdorini (ot kuchi hisobida) foydalanilayotgan qishloq xo'jalik yerlari yoki ekin maydoniga taqsimlanib aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$E_{rt} q \frac{\partial P_k}{\partial M (KXe)}$$

Bunda:  $E_{rk}$  - jami energetik resurslar quvvati (ot kuchida);

$E_m (KXe)$  – jami ekin maydoni (qishloq xo'jalik yerlari).

Uning miqdori ham me'yor darajasida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Mehnatning energetik resurslar bilan qurollanganlik darajasi. U Yuqorida ta'kidlangan jami energetik resurslar miqdorini (ot kuchida) mehnat qilgan kishilarning o'rtacha yillik miqdoriga (kishilar) taqsimlab aniqlanadi. Bunda ushbu tenglikdan foydalanish mumkin:

$$E_{rkq} \frac{\partial P_k}{M_p}$$

Bunda:  $M_r$  – ishlagan mehnat resurslarining o'rtacha yillik soni (kishi).

Bu ko'rsatkichlar korxonada bajariladigan barcha ishlarning qay darajada mexanizatsiyalashayotganligini yoki avtomatlashayotganlik holatini o'rganishga yordam beradi. Lekin ularning miqdori, Yuqorida qayd etganimizdek, belgilangan me'yor darajasida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. SHunday ekan, ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyalashganlik darajasini ham aniqlash lozim. Buning uchun traktor, mexanizmlar, mashinalar yordamida bajarilgan jami ish (etalon gektarda) miqdori korxonada bo'yicha bajarilgan jami ishlar hajmiga (etalon ga) taqsimlanadi. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$M_{dq} \frac{M_u}{\mathcal{K}_u} \times 100\%$$

Bunda:

Md - ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashganlik darajasi, foizda;

Mi - mashina, traktorlar mexanizmlar yordamida bajarilgan ish (et.ga);

Ji - jami bajarilgan ish miqdori (et.ga).

Bu ko'rsatkich jami hamda ayrim ish, ekin turlari bo'yicha ham aniqlanishi mumkin. Masalan, ekinlarni ekish, ularga ishlov berish, hosilini yig'ishtirib olish bo'yicha. CHorvachilikda esa sigirlarni sog'ish, chorva hayvonlarini sug'orish, ularga yem berish va boshqa ish turlari bo'yicha. Sigirlarni sog'ish jarayonining mexanizatsiyalashtirilganlik darajasini aniqlash uchun mashina, agregatlar yordamida sog'ilgan sigirlar bosh sonini jami sog'ilgan sigirlar bosh soniga taqsimlab, 100 ga ko'paytirish lozim... Bu ko'rsatkichlar 100 foizdan Yuqori bo'lmasligi shart.

YAngi texnikalardan, texnologiyalardan foydalanish natijasida mehnat, mablag' xarajatlari tejalishi ta'minlanadi. Uning darajasini aniqlash uchun yangi texnika, texnologiya joriy etilmasdan avval qilingan xarajatlardan ular joriy etilganidan so'ng qilingan xarajatlar miqdori, summasi ayrilib, aniqlangan raqam dastlabki xarajatlarga taqsimlanadi va 100 foizga ko'paytiriladi. Ularni quyidagi formulalar yordamida aniqlash mumkin:

$$X_{tq} \frac{X_1 - X_2}{X_1} * 100\%$$

Bunda:

X<sub>1</sub> - yangi texnika, texnologiya joriy etilmasdan oldingi xarajatlar (so'm);

X<sub>2</sub> - yangi texnika, texnologiya joriy etilgandan so'nggi xarajatlar (so'm).

Yuqorida ta'kidlangan ko'rsatkichlar bilan birgalikda xo'jaliklardagi mavjud moddiy-texnika resurslaridan foydalanish darajasi va samaradorligi ham aniqlanadi. Buning uchun avvalo, mashina-traktor hamda avtomashinalar parkidan foydalanish koeffitsiyenti aniqlanadi. Buni hisoblash uchun xo'jalikda foydalanilgan mashina-traktorlar miqdorini unda mavjud bo'lgan mashina-traktorlar miqdoriga taqsimlash lozim. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$MTPFk \text{ q } \frac{\Phi c}{M c},$$

Bunda:

MTPFk – mashina-traktor parkidan foydalanish koeffitsiyenti.

Fs - foydalanilgan mashina-traktorlarning soni (dona).

$M_s$  - mavjud bo'lgan mashina-traktorlarning soni (dona).

Mashina-traktorlar hamda kombaynlarning ishlab chiqarish jarayonida qatnashganlik darajasi ham aniqlanadi. Uni jami ishlagan mashina kunlari sonini ishlagan mashinalar soniga taqsimlash natijasida aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$\overline{M} \text{ kq} \frac{\sum M_k}{M_c}; \overline{T_k} \text{ q} \frac{\sum T_k}{T_c}; \overline{K_k} \text{ q} \frac{\sum K_k}{K_c}.$$

Bunda:

$\overline{M} \text{ k}$  - bitta mashinaning 1 oyda, mavsumda, yilda ishlagan (qatnashgan) o'rtacha kuni;

$\sum M_k$  - jami ishlagan mashina kunlari;

$\sum T_k$  - jami ishlagan traktor kunlari;

$\sum K_k$  - kombaynlarning ishlagan jami kunlari;

$M_s$ -ishlagan mashinalari soni;

$T_s$ -traktorlar;

$K_s$ -kombaynlar soni.

Bu ko'rsatkich yordamida xo'jalikda 1 traktor, kombayn yoki mashina yil davomida necha mashina-kun ishlaganligi aniqlanadi. Bu ko'rsatkichning miqdori Yuqoriga intilishi qonuniy hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda o'rtacha va alohida har bir mashina-traktordan, Yuk mashinasidan, don kombayni, paxta teruvchi mashinadan foydalanish darajasi ham aniqlanadi. Uni aniqlash uchun mashinalar (tgkm), traktorlar (et.ga), kombaynlar (gektar, tonna) yordamida alohida-alohida jami bajarilgan ish hajmini shu ishlarni bajarishda qatnashgan, Yuqorida ko'rsatilgan texnikalarning o'rtacha soniga taqsimlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$TMK_1 \text{ q} \frac{T_u}{T_c}; \frac{M_u}{M_c}; \frac{K_u}{K_c},$$

Bunda:

$TMK_1$  – traktor, mashinalarning o'rtacha bajargan ishi (1 smenada, 1 kunda, mavsumda, 1 yilda etalon gektarda, tonnagkm, tonnada, gektarda).

$\sum T_i, M_i, K_i$  – traktorlar, mashinalar, kombaynlar yordamida bajarilgan jami ish hajmi (etalon gektarda, tonna-kilometrda, tonnada);

$\sum T_s, M_s, K_s$  – shu ishlarni bajarishda qatnashgan traktorlar, mashinalar, kombaynlarning o'rtacha soni (dona).

Bu ko'rsatkichlar yordamida, masalan, 1 ta traktor ma'lum muddatda bajargan ish miqdori aniqlanadi. Uning miqdori Yuqori bo'lgani yaxshi.

Moddiy-texnika resurslaridan foydalanish samaradorligi ham aniqlanadi. Masalan, 1 et. gektarning, 1 tonna km, 1 kilovat soatning tannarxi isbotlanadi. Ular quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

$$EG_{tnq} = \frac{\sum Mx}{\sum \mathcal{E}T_{za}}; \text{ Bunda: } EG_{tn-1} \text{ etalon ga. tannarxi (so'mda);}$$

$\sum Mx$  – mexanizatsiya yordamida bajarilgan ishlarga qilingan jami xarajat (ming sum);

$\sum \mathcal{E}T_{za}$  -jami bajarilgan ish hajmi (etalon ga).

YAngi texnika-texnologiyalarga qilingan investitsiyalarning samaradorligi ham aniqlanadi. Buning uchun ularni joriy etish tufayli tejalgan xarajatlar natijasida qo'shimcha olingan sof daromad summasini ularga qilingan investitsiyalar summasiga taqsimlash lozim.

Yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkichlar holatini aniqlab, moddiy-texnika resurslari holati, darajasi, samaradorligi aniqlanib, chuqur tahlil qilinadi. Natijada ularga ta'sir etgan omillar aniqlanib, kelajakda ularni yaxshilash chora-tadbirlari belgilanadi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun uning moddiy-texnika bazasini talab darajasida shakllantirish lozim. Bu masalaga bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxonaning o'zi katta e'tibor berishi kerak. CHunki korxonalar mustaqil faoliyat Yuritadilar.

Demak, barcha korxonalar o'zlariga kerak bo'lgan moddiy-texnika resurslarini sotib olishlari, ta'mirlab, butlashlari, yig'ishlari hamda qurishlari mumkin. Masalan, bino-inshootlarni o'zlari qurishlari yoki pudratchilarga berishlari, mashina, traktor, kombaynlarni o'zlarida yoki ixtisoslashgan korxonalarda yig'ib, ta'mirlab olishlari mumkin. YAngi qishloq xo'jalik texnikalarini kimyoviy vositalarni, yoqilg'ilarni, ozuqalarni esa ularni ishlab chiqaruvchi korxonalardan bevosita o'zlari hamda birjalar, auksionlar yordamida zavodlardan sotib olishlari mumkin.


Xo'jaliklar moddiy-texnika resurslari bazasini mustahkamlashda samarali yo'llardan, usullardan foydalanishlari, kamroq xarajat qilib, ko'proq foyda olishga intilishlari kerak.

Lekin bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida xo'jaliklarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda ayrim salbiy holatlar sodir bo'lmoqda. Ma'lumki, markazdan ma'muriy usulda rejali boshqarilgan iqtisodiyot sharoitida barcha moddiy-texnika resurslari sovxozlarga, kolxozlarga asosan markazlashtirilgan

holda bepul berilgan. Ularning qiymatlari qishloq xo'jalik mahsulotlarining baholari: soliqlar, subsidiya, dotatsiya va boshqa mexanizmlar yordamida undirib olingan.

## 2-chizma

### Qishloq xo'jaligidagi ayrim moddiy-texnika resurslari bozori



Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa bu masala asosan xo'jaliklarning mablag'lari evaziga amalga oshirilmoqda. Xo'jaliklarning mablag'lari esa yetmaydi. Sababi – bir tomondan, sanoat mahsulotlarining bahosi qishloq xo'jalik mahsulotlarining baholaridan juda katta farq qilmoqda, ikkinchi tomondan, qishloq xo'jalik korxonalarini sotayotgan mahsulotlarining haqini o'z vaqtida ololmayotirlar. Bunday holatga chek qo'yish uchun respublika hukumati tomonidan sezilarli yordam berilmoqda. Bu yordam transh, investitsiya, kredit shakllarida amalga oshirilib, ular hisobidan qishloq xo'jalik korxonalarining moddiy-texnika resurslari shakllantirilmoqda.

Qishloq xo'jaligining mustahkam moddiy-texnika bazasini yaratish bilan birgalikda ulardan to'liq va samarali foydalanishga erishish lozim. Demak, tarmoq korxonalarida ulardan foydalanilayotganlik darajasini aniqlash maqsadga muvofiq.

## **2-BOB. Moddiy-texnika resurslaridan foydalanishning hozirgi holati va uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.**

### **2.1 Buloqboshi tumanidagi A.Abdupattayev fermer xo'jaligini joylashgan o'rni va tabiiy iqtisodiy sharoiti.**

Fermer xo'jaliklarining maxsulot ishlab chiqarish jarayonidagi iqtisodiy samaradorligi ko'p jihatdan xo'jalikning ma'muriy-xududiy joylashuvi, tuprog'ining tarkibi, suv bilan ta'minlanganlik darajasi va tabiiy iklim sharoitlariga bevosita bog'likdir.

Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligi Andijon viloyati Buloqboshi tumani, T.Raximov massivi, Qo'rg'oncha QFY da joylashgan. Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligi paxtachilik va g'allachilikka ixtisoslashgan bo'lib, Buloqboshi tumani xokimligi xuzuridagi tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tgazish inspeksiyasi tomonidan 2006-yil 23-sonli qaror bilan ruyxatdan o'tkazilgan. [51]

Abdupattaev Abduvaxob fermer ho'jaligi g'arb tomondan - Avazbek Koraxujaev f/x, shimoldan - YAngiboy f/x, janub tomondan - Asqarali Mirzaev f/x, sharq tomondan esa - Olmazor Xosili f/x bilan chegaradoshdir.

Abdupattaev Abduvaxob fermer ho'jaligiga A.Xojiyev boshchilik qilib kelmoqda. 1962 yilda tug'ilgan, oilali. U o'rta maxsus ma'lumotli xisobchi. Andijon elektromexanika texnikumida xisobchi mutaxassisligi bo'yicha o'qigan.

Abdupattaev Abduvaxob fermer ho'jaligi viloyat markazidan 30 km uzoqlikda, tuman markazidan esa – 7 km uzoqlikda joylashgan.

Xo'jalik MTP dan 3 km, O'zkimyo tashkilotidan – 3 km, Neftebazadan – 3 km, don qabul qilish shoxobchasidan – 3 km, paxta tozalash zavodidan – 16 km, pillakashlik korxonasidan – 8 km uzoqlikda joylashgandir.

Abdupattaev Abduvaxob fermer ho'jaligi o'z nizomiga muvofiq quyidagi vazifalar va faoliyatlari belgilangan:

1. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish asosida daromad (foyda) olish, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash hamda o'z a'zolarining ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish;
2. Ajratilgan yerdan agrotexnika qoidalari asosida oqilona va samarali foydalangan holda Yuqori hosildorlikni ta'minlash;
3. Paxta va g'allachilik hamda boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va ularni realizatsiya qilish;
4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish ularni qayta ishlash va realizatsiya qilish kabi vazifalar belgilangan.

Ijaraga beriladigan sug'oriladigan yerlarning tavsifida 100 foiz suv bilan ta'minlanganligi, tuproq banitetining o'rtasiga o'lchangan bali 55- ball ekanligi ko'rsatilgan.

Qishloq xo'jaliga mo'ljallangan yerlarning me'yoriy baholarini belgilashda quyidagilar hisoblanadi:

- tuproq sifati (banitet)

- umumiy miqyosda qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi korxonaning yer maydoni yoki qishloq xo'jalik yerlarining asosiy turlari.

Fermer xo'jaligini iqtisodiy samaradorligini oshirishda bank tizimini roli juda katta. SHundan kelib chiqib doimiy ravishda bank bilan iqtisodiy aloqalari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligi Aktsiyadorlik tijorat Agrobankning Buloqboshi tumanidagi filialida hisob raqami ochilgan.

Abdupattaev Abduvaxob fermer ho'jaligining umumiy yer uchastkasi 90,5 ga ni tashkil etib, shundan 78,3 ga ekin maydoni sifatida foydalanib kelinmoqda. SHu jumladan 2013 yilda paxta 45,3 ga yerga, bug'doy 33 ga yerga ekilgan. Fermer xo'jaligi bug'doy xosili yig'ishtirib olingandan keyin uni o'ringa takroriy ekin sifatida piyoz, kartoshka, sabzi, turup, sholg'om va shu kabi boshqa sabzavot ekinlari ham ekiladi.

Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligi hududidagi iqlim va tabiiy sharoit paxta va g'alla kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun juda qulaydir. Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligining hududida yil davomida 3220 soat

quyoshli kunlar bo'lishiga to'g'ri keladi. Yilning issiq kunlari 6 oyni tashkil etadi. Eng issiq kunlar o'rtacha kecha-kunduz bo'yicha 36-40°S bo'lsa, ayrim kunlar 40-42°S bo'ladi. 2013 yilda samarali harorat paxta yetishtirish uchun me'yoriy holatda bo'ldi. Xo'jalikda vegetatsiya davrining davomiyligi 165 kuni tashkil etadi.

Fermer xo'jaligi joylashgan xududining iqlim sharoiti keskin kontinental bo'lib, yoz mavsumi issiq, qish fasli esa sovuq xisoblanadi. YOzda xavo xarorati 38-42 darajaga qatar ko'tariladi. Kish oylarida esa xavoning 10-12 darajagacha, ayrim yillarda 14-16 darajaga yetadi. Yilning o'rtacha xavoning xavoning xarorati 17-19 darajaga teng bo'lib, o'rta tolali paxta g'alla ekinlaridan Yuqori xosil olish imkoniyatini beradi. Fermer xo'jaligigi iqlim sharoitiga mos xolda sug'orilib dexqonchilik qilinadi. Suv bilan ta'minlanish darajasi 2013 yilda me'yor darajasida bulgan. Mazkur holat ekinlarni o'z vaqtida sug'orishni ta'minlashi bilan birga Yuqori hosil evaziga iqtisodiy samaradorlikning oshishiga xizmat qilmoqda. Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligigiga ijaraga berilgan yer uchaskasining tuproq banitet ballari va tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar 1-jadvalda berilgan bo'lib, xo'jalikning ekin maydonlari holati, o'rtacha banitet ballari, kadastr guruxi haqida ma'lumotlar aks etirilgan [51].

1-jadvalda Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligiga ijaraga berilgan yer uchastkasining tuproq banitet ballari va tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan. yer uchastkasi 3- kadastr guruhining 6-sinfiga oid bo'lib, uni o'rtacha banitet balli 55 ga teng bo'lib, fermer xo'jaligi shu asosida yagona yer solig'ini to'laydi.

Sug'orish kartalarining hajmi texnika vositalaridan samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Sababi uni sug'orish kartalarining xajmi talab darajasida keskin Yuqori bo'lib ishlab chiqarish resurslaridan, jumladan texnikadan samarali foydalanish imkoniyatlari mavjud [51].

Tuproq'i och tusli bo'z tuproq. yerning meliorativ xolati yaxshi.

**Buloqboshi tumanidagi Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligiga ijaraga berilgan yer uchastkasini tuproq bonitet ballari to'g'risida ma'lumot.**

**1-jadval.**

№	Er uchastkalari		Bonitet	Umumiy yer maydoni. ga	O'rtacha bonitet bali
	Kadastr guruhleri	Sinflari			
1	1- kadastr guruhi	1- sinf 2- sinf	0 dan 10 gacha 11dan 20 gacha		
2	2- kadastr guruhi	3- sinf 4-sinf	21 dan 30 gacha 31dan 40 gacha		
3	3- kadastr guruhi	5- sinf 6- sinf	41 dan 50 gacha 51 dan 60 gacha	90,5	55
4	4- kadastr guruhi	7- sinf 8- sinf	61 dan 70 gacha 71 dan 80 gacha		
5	5-kadastr guruhi	9- sinf 10- sinf	81 dan 90 gacha 91 dan 100gacha		

Fermer xo'jaligida O'zbekiston Respublikasi qonunlaridan, Prezident farmonlaridan, Vazirlar Mahkamasi qarorlaridan, viloyat va tuman hokimliklarining qaror va bu Yuruklaridan, shu bilan birgalikda fermer xo'jaligini Yuritish uchun qo'llaniladigan boshka me'yoriy–huquqiy hujjatlaridan xam talab darajasida foydalanib kelinmoqda. Bunda asosiy e'tiborni agrar sohada amalga oshirilayotgan iktisodiy isloxlarni chukurlashuvi asosida yaratilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanishga karatish maksadga muvofik buladi.

Buloqboshi tumanidagi Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligini barqaror rivojlanishi ko'p jixatdan shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirilishiga bog'liqdir. SHartnomaviy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining xo'jalik Yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huqukiy bazasi to'g'risidagi (29.08.1998 y.) Qonuni asosida tartibga solib turiladi.

SHartnoma tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladigan xuquqiy xujjat, bitimdir. Fermer xo'jaliklarida shartnomaviy munosabatlarni to'g'ri tashkil etilishi va qo'llanilishi muxim ahamiyatga egadir.

Buloqboshi tumanidagi Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligida mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan barcha munosabatlar talablarga javob bera oladigan darajadagi shartnomalar asosida amalga oshirilgan ekan.

Xo'jalik o'zini iqtisodiy munosabatlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 4 sentyabrdagi «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirishning javobgar ligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 383-sonli qaroriga muvofiq olib bormoqda.

Buloqboshi tumanidagi Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligi uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan xolda qishloq xo'jaligi tovar maxsuloti ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi xukukiy shaxs maqomiga ega bulgan xususiy tadbirkordir. Fermer xo'jaligi tuman hokimligida ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab Yuridik shaxs maqomini olgan va o'z nomidan shartnomalar tuzish, mulkiy javobgarlikni o'z zimmasiga olgan.

Asosiy vositalar bu ishlab chiqarish jarayonida ko'p marta qatnashib, o'zining qiymatini mahsulotga qisman o'tkazadigan vositalarga aytiladi. Asosiy vositalar tarkibiga bino, inshootlar, texnikalar (traktorlar, kombaynlar, kishlok xujaligi mashinalari, avtomashinalar), ko'p yillik daraxtzorlar, ishchi va mahsuldor hayvonlar va boshqa uzoq muddat foydalaniladigan vositalar kiradi. Buloqboshi tumanidagi Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligi hozirgi kunda 1 dona TTZ markali traktori, DT-12, Oriyent markali texnikalarga ega va uni ishlatish uchun zarur bulgan ishchi organlarga ega xolos. Buloqboshi tumanidagi

Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligini texnika vositalari bilan taminlanishi talabdan pastdir.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar Buloqboshi tumanidagi Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligi ishlab chikarishni modernizatsiyalash asosida uzini texnika vositalari bilan taminlashni keskin yaxshilash choralari kurishi lozimligini tula asoslaydi. Istiqbolda fermer xo'jaligi kamida 80-85 foiz agrotexnik chora-tadbirlarni o'z kuchi bilan amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Aks holda fermer xo'jaligini texnik-texnologik mustaqilligi ta'minlanmaydi.

Fermer xo'jaligi iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlarimiz davomida biz xo'jalikda paxta yetishtirish holatini, texnologiyasini va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganish, tahlil etish kerak deb topdik.

Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligida chigit plyonka ostiga ekib kelinmoqda. O'zbekiston paxtachiligida plyonkadan foydalanishga urinishlar 1985-1988 yillarda boshlangan. Bu davrda plyonkadan asosan mulcha, tuproq Yuzasini qatqaloqdan saqlovchi omil sifatida foydalanilgan.

Plyonka ostiga chigit ekib, paxta yetishtirish usuli asosan 1995 yildan boshlab mamlakatimizda, xususan Andijon viloyatida ilmiy-amaliy jihatdan o'rganila boshlandi. O'tgan davr mobaynida mazkur usul yil sayin takomillashtirib kelinmoqda.

Hozirgi davrda plyonka ostiga chigit ekib paxta yetishtirish usuli yaxlit texnologiya maqomida ko'p xo'jaliklarida joriy etilyapti.

Paxtachilik mintaqasining yer kurrasidagi shimoliy chegarasi  $38^{\circ}$ - $40^{\circ}$  kengliklargacha boradi. Bizning mamlakatimiz  $46^{\circ}$ - $36^{\circ}$  shimoliy kenglik,  $37^{\circ}$ - $11^{\circ}$  janubiy kengliklarda joylashgan. G'arbiy chekka nuqtasi  $56^{\circ}$ , sharqiy chekka nuqtasi  $73^{\circ}$ — $10^{\circ}$  uzunliklarga to'g'ri keladi. Binobarin, mamlakatimiz paxtachiligi dunyo paxtachiligining eng shimoliy chegarasidir.

SHuning uchun mamlakatimizda, jumladan, Farg'ona vodiysida issiqsevar o'simlik - g'o'zadan ertapishar paxta hosili yetishtirish, hosilni kuzgi sovuq tushguncha to'la yig'ishtirib olish azaliy muammo hisoblanadi.

Ertaki paxta hosili yetishtirish uchun chigitni erta ekish, g'o'zaning baravj rivojlanishiga, ko'saklarning barvaqt ochilishiga imkoniyat yaratish talab qilinadi. Ammo, chigit ekish muddatini tuproq harorati chegaralab turadi. Binobarin, g'o'za chigiti tuproqning ekish qatlamidagi harorat 11°S bo'lganda una boshlaydi. 12—14°S bo'lganda qiyg'os unib chiqadi Plyonka ostiga chigit ekib, paxta yetishtirish texnologiyasida chigit odatdagidan erta - tuproq harorati 9-10°S bo'lganda ekilaveradi. Chunki plyonka ta'sirida tuproq qo'shimcha 3-5°S harorat bilan ta'minlanadi va chigit qiyg'os unib chiqaveradi.

Bu texnologiya bo'yicha chigitni 20 mart - 5 aprelda, yoxud odatdagidan 10-15 kun erta ekish maqbulligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Chigit ekilgan maydonda plyonka iYun oyining birinchi o'n kunligigacha saqlanadi va shu davr mobaynida tuproq qo'shimcha harorat bilan ta'minlanishi natijasida g'o'za o'simligining rivoji tezlashadi [51].

Ma'lumki, paxtachilik mintaqasiga yiliga o'rtacha 2500-3000 soat Quyosh nuri, yorug'lik tushadi. Yangi texnologiyada ekinlarning yorug'likdan foydalanish samaradorligi ham ortadi. Masalan, eski texnologiyada g'o'za 15-20 apreldan 15-20 oktyabrgacha fotosintez jarayonini o'tkazib, yorug'likdan foydalanar edi. Endilikda g'o'zadagi fotosintez jarayoni 5—10 apreldan 1 oktyabrgacha davom etib, uning o'rniga ekilgan kuzgi bug'doy 15 oktyabrdan 1-10 dekabrgacha yorug'likdan foydalanadi.

Qurg'oqchil mintaqamizda tuproqdan suvning bug'lanishi o'rtacha yiliga 1360 - 1670 mm.ni tashkil etadi. Dehqonchilik uchun tabiatning bu salbiy hodisasi, ayniqsa, fevraldan iYun oyi oxirigacha kuchli bo'ladi Chigit plyonka ostiga ekilganda tuproq Yuzasining 60 foizi 10-15 iYunga qadar berkitiladi. Demak, namlikning bug'lanishi ham 80—90 kun davomida keskin kamayadi.

Mintaqamizda yillik yog'in miqdorining 40-50 foizi chigitning qiyg'os unib chiqishi, yosh g'o'za nihollarining ayni rivojlanish davriga to'g'ri keladi. Odatda chigit ekish mavsumidan so'ng kuchli yomg'ir, jala, sel yog'ib, tuproq Yuzasini qatqaloq qiladi, tuproqning suv va havo maromi buziladi. Ushbu tabiat hodisalari tufayli g'o'za rivojdan qoladi, ko'chat qalinligi kamayadi.

Bu texnologiya chigit ekilgan pushtada qatqaloq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Plyonka ostiga chigit ekib, paxta yetishtirish texnologiyasi tuproq Yuzasidan suv bug'lanishini kamaytirib, uning tarkibidagi zararli tuzlarning ko'tarilishiga, ya'ni tuproqning sho'rlanishiga qarshi omil hamdir. Dalalarni begona o't bosishi darajasi ham chigit plyonka ostiga ekilgan dalalarda 30-40 foizga kamayadi. Plyonka ostiga chigit ekib, paxta yetishtirish texnologiyasi g'o'zaning hayot omillari bilan ta'minlanishini yaxshilaydi, tabiat noqulayliklari zararini kamaytiradi, g'o'zaning suv, oziq, havo maromiga ijobiy ta'sir etadi.

Abdupattaev Abdovaxob fermer ho'jaligida iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llarini aniqlash Yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlarimiz davomida biz xo'jalikda bug'doy yetishtirish holatini, texnologiyasini o'rganish, tahlil etish lozim deb topdik. Kuzgi bug'doy tuproqning unumdorligiga, begona o'tlardan toza va nam bilan yaxshi ta'minlangan tuproqlarga talabchandir. Abdupattaev Abdovaxob fermer xo'jaligi almashlab ekish usulidan foydalanib, samaradorlikka erishmoqda. Bunda resurs tejankor texnologiya hisobiga iqtisodiy samaradorlik oshmoqda.

Kuzgi bug'doy ekiladigan yerlarni shu maydonda qanday ekin ekilganligi va dalaning begona o'tlardan qay darajada tozaligiga qarab ishlanadi. Bug'doyni optimal muddatda ekish va yerni yaxshi ishlash uchun oldingi ekindan bo'shagan maydonlar sug'oriladi. Tuproq yetilgandan so'ng 4 va 5 korpusli ag'darma pluglar yordamida 25-30 sm chuqurlikda haydaladi, so'ngra boronalanadi va mola bostiriladi. yerlar notekis bo'lsa tekislanadi. SHudgorlangan maydon og'ir boronalar yoki zichlagichlar (katoklar) bilan zichlanadi aks holda kuzgi-qishgi sharoitlarda zichlanish natijasida bug'doy maycalapi va o'simliklari siyraklashadi va nobud bo'ladi. SHo'rlangan yerlarga kuzgi bug'doy ekishdan oldin tuproq sho'ri Yuviladi.

Kuzgi bug'doy yerning unumdorligiga talabchan bo'ladi. Rejalashtirilgan hosilni olish uchun yerga solinadigan o'g'itlar me'yori agrokimyoviy kartogramma ma'lumotlariga asosan yerlardan hosil bilan chiqib ketadigan oziq moddalar, ekin o'zlashtiradigan oziq elementlar va yerga solingan o'g'itmiqdoriga qarab

aniqlanadi. Kuzgi bug'doy azotga juda talabchan bo'ladi. U nay o'rash va boshqolanish davrida azotni, o'sishning dastlabki 1-5-xaftasida fosforni va o'suv davrining boshidan gullagunga qadar, kaliyni ko'p talab qiladi. Fosforli va kaliyli o'g'itlar kuzgi bug'doyning qishga chidamliligini oshiradi, donning yetilishini tezlashtiradi. Poyaning yotib qolishidan va turli zamburug' kasalliklaridan saqlaydi.

Ko'p miqdorda azotli o'g'itlar solinganda tuplanish muddati uzayib, poyalardagi boshloqlar bir vaqtda yetilmaydi.

Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligida quyidagi miqdorda o'g'it berilmoqda: azot - 180 kg/ga, fosfor — 90 va kaliy 60 kg/ga.

Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligi kuzgi bug'doyni ekish uchun qulay muddat bo'lgan sentyabrning so'nggi o'n kunlik oktyabrning ikkinchi o'n kunligida ekadi.

Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligi bug'doyni asosan tor qatorlab dalaning bir tomonga, ya'ni sug'orish yo'liga qarab ekadi. SHundagina o'simlik yorug'lik, suv va oziq moddalardan teng foydalanadi. Bu usulda traktor g'ildiraklari joylanish masofasida 1-2 ta seyalkaning soshniklari berkitib, shu soshniklardan urug' ekilmaydi. Keyinchalik shu qoldirilgan qatorlar orqali bug'doy sug'oriladi. O'g'it va gerbitsid solinganda traktorning shu qatorlardan Yurishi ta'minlanadi.

Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligida ekinlar ikki muddatda oziqlantiriladi. Birinchi marta tuplanish davrida boronalashdan oldin va ikkinchi marta nay o'rash davri boshlanganda oziqlantiriladi. Oziqlantirishda ekishdan oldin berilgandan so'ng qolgan o'g'itlar barobariga ikki qismga bo'linib, ikki marta beriladi.

Sug'orish me'yori tuproq muhitidan kelib chiqib gektariga 700-800 m<sup>3</sup> dan 1000-1200 m<sup>3</sup>/ga ni tashkil etadi. Bug'doy ekish vaqtida koldirilgan egatlar orqali sug'opiladi. Bu usul eng yaxshi usul hisoblanib, suv tejab sarflanadi. yer betida katqaloq hosil bo'lmaydi va suv bir tekis taqsimlanadi.

Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligi bug'doy hosilini yig'ib-terish ishlarini o'z vaqtida va qisqa muddatda tugallaydi.

Xisobot davrida Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligini 2013 yil yakuni bo'yicha xisoboti va 2014 yil uchun tuzilgan biznes reja bilan yaqindan tanishib chiqdim.

Fermer xo'jaligi tasarrufidagi ekin maydonlarining faoliyat davomidagi 3 yil mobaynidagi tarkibi, ekinlar strukturasi va xodimlar soni haqidagi ma'lumotlar 2-jadvalda batafsil keltirilgan [51].

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligida jami ekin maydoni 2012 yilda 78,3 gektarni, 2014 yilda esa ekin maydoni o'zgarmagan.

Xo'jalikdagi paxta maydonlari 2012 yilda 50 gektardan iborat bo'lib, 2014 yilga kelib 40,3 gektarni tashkil etgan va 19,4% ga kamaygan. Don yetishtirish maydonlari 2012 yilda 28,3 gektardan iborat bo'lib, 2014 yilga kelib 34,3 %ga ortgan. 2014 yilda jami ekin maydoniga nisbatan paxta maydonlarining ulushi 51,5 %ni , g'alla maydonlarining ulushi 48,5 %ni tashkil etgan. SHu bilan bir vaqtda paxta hosildorligi 29 ts/ga dan 30,7 ts/ga gacha oshgan, bug'doy hosildorligi 49 ts/ga dan 64,1 ts/ga gacha ortgan.

Xodimlar soni 2012 yilda 47 nafar ishchilarni tashkil etgan, 2014 yilda esa 4,3 % ga qisqargan va 45 nafarni tashkil etgan. Paxtachilikda 2012 yilda 41 nafar ishchilar band bo'lgan, 2014 yilda esa 7,3 % ga qisqargan va 37 nafarni tashkil etgan. 2012 yilda 6 nafar ishchi, 2014 yilda esa 7 nafari bug'doy yetishtirishda band bo'lgan.

Buloqboshi tumanidagi Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligining ishchi-xodimlari haqidagi ma'lumotlar 3-jadvalda aks ettirilgan [51]. Fermer xo'jaligini o'rta maxsus ma'lumotli buxgalter, 1962 yilda tug'ilgan Xojiyev A. boshqarib kelmoqda. Andijon elektromexanika texnikumida o'qigan, 1983 yilda o'qishni bitirgan. Xo'jalik rahbari fermer xo'jaligini tashkiliy-iqtisodiy asoslarini yaxshi tushunadi va bu soxada yetarli tajribaga egadir.

**Buloqbooshi tumanidagi Abdupattaev Abduvaxob fermer  
xo'jaligining ekin maydonlari va uning tarkibi**

**2-jadval**

t/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov bir-ligi	2012y	%	2013y	%	2014y	%	2014 y.da 2012 y.ga nisbatan, %
1	Jami ekin maydoni	ga	78,3	100	78,3	100	78,3	100	100,0
1.1	shundan: Paxta	ga	50	63,9	45,3	57,9	40,3	51,5	80,6
	Hosildorlik	ts\ ga	29,0		31,5		30,7		105,9
	YAlpi hosil	ts	1450,0		1426,9		1237,2		85,3
1.2	Don	ga	28,3	36,1	33	42,1	38	48,5	134,3
	Hosildorlik	ts\ ga	49,0		53,0		64,1		130,8
	YAlpi hosil	ts	1386,7		1749		2435,8		175,7
2.	Xodimlar soni	nafar	47	100,0	45	100,0	45	100,0	95,7
2.1.	Paxtachilikda	nafar	41	87,2	38	84,4	37	82,2	90,2
	Donchilikda	nafar	6	12,8	7	15,6	8	17,8	133,3
3	Erni bonitet bali	ball	55		55		55		

2012 yildagi 47 nafar hodim bo'lib, 2014 yilga kelib ishchilar soni 2 ga kamaygan . Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligida 2013yil holatiga 45 nafar hodimlardan 37 nafari yoki 84,4%i paxtachilikda, qolgan 7 nafari yoki 15,6 %i esa g'allachilikda agrotexnika tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirish bilan shug'ullanib kelgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaligining a'zolari o'z faoliyat turi bo'yicha tegishli ma'lumotga ega bo'lmasada, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish bo'yicha ma'lum tajribaga ega.

Fermer xo'jaligining barcha ishchilari yakdil ravishda o'z mehnati natijasidan manfaatdor bo'lishini anglagan holda paxta va g'alla ekinlarini yetishtirishda Yuqori hosil olishga intilmoqdalar. Fermer xo'jaligidagi agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirishda suvchi, mexanizator va agronom kabi malakali xodimlarga extiyoji bor. Sababi ko'plab hodimlar maxsus tayyorgarlikka ega emas.

Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligi mehnat jamosining tarkibini taxlil qilish natijasida shu ma'lum bo'ldiki, fermer xo'jaligining a'zolarining 1nafar a'zosi oliy ma'lumotli, 1 nafari o'rta maxsus.

**Buloqboshi tumanidagi Abdupattaev Abduvaxob fermer  
xo'jaligini a'zolari va ularning tarkibi to'g'risida ma'lumot.**

3-

**jadval**

№	A'zolarning ismi va sharifi.	Tug'il- gan yili	Ma'lu- moti	Kasbi	Ish staji	F/x boshlig'iga qarindosh- urug'chilik aloqasi	Qo'shimcha egallagan kasbi
<b>Ta'sisichilar:</b>							
1	Xojiyev A.	1962	O'rta- maxsus	buxgalter	29	O'zi	Rahbar
2	Aliyev A.	1978	Oliy	Agronom	15	Qarindosh	Yo'q
<b>SHartnoma asosida faoliyat ko'rsatuvchilar.</b>							
3	Maqsudov P.	1975	o'rta	mexaniz	10	Yo'k	Yo'k
4	Axmedov U.	1972	o'rta	Ishchi	17	Yo'k	Yo'k
5	Qambarov N	1976	o'rta	Mexaniz	3	Karindosh	Yo'k
6	SHamsiddinov X	1975	o'rta	Suvchi	13	Karindosh	Yo'k
7	Rafikov SH.	1975	o'rta	Suvchi	10	Karindosh	Yo'k
8	Maxkamov R.	1980	o'rta	Texnik	5	Yo'k	Yo'k
9	Sobirova G.	1972	o'rta	Ishchi	5	Karindosh	Yo'k
10	Zulunova S.	1984	o'rta	ishchi	5	Karindosh	Yo'k
11	Qo'ldasheva D	1979	o'rta	A'zo	3	Karindosh	Yo'k
12	Raxmonov V.	1978	o'rta	A'zo	7	Yo'k	Yo'k
	.....						
45	Turdiyev R.	1978	o'rta	Texnik	8	Yo'k	Yo'k
Jami: 45 nafar xodimlar							

Qolgan barcha xodimlar o'rta ma'lumotga ega va shartnoma asosida ishlab kelmoqdalar. Keltirilgan ma'lumotlar fermer xo'jaligida boshqarishni samarali

tashkil etish uchun jamoadagi maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassis kadrlarning talab darajasidan keskin past ekanligini asoslaydi.

Fermer xo'jaligida maxsulot ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonida amaldagi huquqiy-me'yoriy xujjatlardan samarali foydalanilgani tufayli oxirgi yillarda barcha soxalar qatori qishloq xo'jalik soxasida ham aytarli ijobiy natijalarga erishib kelinmoqda. Buni biz Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligining oxirgi 3 yil mobaynidagi iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarida ko'rishimiz mumkin. Bu ma'lumotlar 4-jadvalda keltirilgan [51].

## **2.2. Buloqboshi tumanidagi «A.Abdupattayev» fermer xo'jaligining moddiy texnika vositalardan foydalanib erishilgan iqtisodiy ko'rsatkichlari taxlili.**

Qishloq xo'jalik fermer xo'jaligilarining iqtisodiy samaradorlik darajasiga bir qancha omillar ta'sir etadi. Tarmoqning foyda summasini hamda rentabelligini ortishiga asosiy mahsulotlarning ishlab chiqarib sotish natijasida erishilgan Yutuqlar katta ta'sir ko'rsatmoqda

Fermer xo'jaligida maxsulot ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi haqida masala ko'rilganda, «Samara» va «Samaradorlik» - tushunchalarining bir xil emasligini ko'zda tutish kerak. «Samara» termini qandaydir jarayonning natijasini bildiradi. Umumiy ko'rinishda har qanday ishlab chiqarishning samarasi shaklida uning vazifasi – ishlab chiqarishning maqsadini amalga oshiruvchi pirovard mahsulot Yuzaga chiqadi. Bir tomondan, u o'z tarkibiga ma'lum davrdagi harakatdagi ishlab chiqarish resurslarining moddiy natijasi yig'indisini oladi, boshqa tomondan – ishlab chiqarishning pirovard maqsadi faqat bevosita ishlab chiqarilgan moddiy boyliklarning hajmida mujassamlashgan bo'ladi.

«Samara»- qishloq xo'jalik mahsulotlari shaklida(natura va pulda) ishlab chiqarish resursi, xarajat, foyda sferasida esa iqtisodiy, shuningdek xodimlarning yashash va ishlash sharoitini ham aks ettiruvchi sotsial o'sish bo'lishi mumkin.

Lekin samara qanchalik muhim bo'lsa ham, o'z-o'zidan kishining mehnat faoliyatini to'liq xarakterlamaydi, qanday resurs(xarajatlar)lar evaziga olinganligini ko'rsatmaydi. Bir xil samara turli usul bilan, resurslardan turlicha darajada foydalanish orqali olingan bo'lishi mumkin va aksincha, bir xil resurs(xarajat)lar turli samara berishi mumkin. SHuning uchun erishilgan samarani shu samarani olishda qatnashgan resurslar(xarajatlar) bilan taqqoslash zaruriyati kelib chiqadi.

Fermer xo'jaligining rivojlanishi imkoniyatlari kup jixatdan uning Iqtisodiy samaradorligigiga boglikdir. Iqtisodiy samaradorlikka mavjud resurslardan tejab-tergab okilona foydalanish asosidagina erishish mumkin.

Iqtisodiy samaradorlik murakkab iqtisodiy kategoriya bulib bir kator natural va kiyamat Ko'rsatkichlari bilan ulchanadi.

Natural Ko'rsatkichlarga xosildorlik, yalpi xosil, sarflangan mexnat mikdori, yer birligi va xodim xisobiga olingan maxsulot turlarining mikdori va shu kabi boshka Ko'rsatkichlar kiradi.

Kiyamat Ko'rsatkichlari jumlasiga yalpi maxsulot, baxo, tannarx, ishlab chikarish xarajatlari, foyda kabi Ko'rsatkichlar va ularni yer birligi va xodimga tugri kelishi kiradi.

Kiyamat Ko'rsatkichlari ichida rentabellik darajasi aloxida o'rin tutadi. U daromadlar bilan xarajatlarni takkoslash Yuli bilan aniklanib, bir sumlik xarajat xisobiga olingan foydani aks ettiradi.

Rentabellik foydalanish va kullash jixatidan sodda va kulay iqtisodiy Ko'rsatkich xisoblanib, undan ilmiy tadkikotda va amaliyotda keng kullaniladi.

Iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar:

- qishloq xo'jaligi yerlarining holati, ulardan foydalanish darajasi;
- xo'jaliklarning ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish darajasi;
- mehnat resurslari, ulardan foydalanish hamda rag'batlantirilishi;
- ishlab chiqarishning intensivlashganlik darajasi;
- chorva hayvonlari, ularning mahsuldorligi;
- baholar, soliqlar, to'lovlar darajasi;
- suv resurslari, ulardan foydalanish darajasi;
- davlat, mahalliy bYudjetdan ajratilayotgan mablag' va boshqalar.

Biz xam Buloqboshi tumanidagi A.Abdupattayev fermer xo'jaligida ishlab chikarishning iqtisodiy samaradorligini aniklashda rentabellik darajasidan foydalandik. U samaradorlikning asosiy yakunlovchi iqtisodiy ko'rsatkich bulib xisoblanadi.

**Buloqboshi tumanidagi Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligining  
iqtisodiy samaradorligi**

**4-jadval**

№	Kursatkichlar	ulchov birligi	2011 y	2012 y	2013 y	2013yilda 2011 yilga nisbatan %
1	Ekin maydoni	ga	78,3	78,3	78,3	100,0
	a) paxta	ga	50	45,3	40,3	80,6
	b) bugdoy	ga	28,3	33	38	134,3
2	Ishlab chikarish xarajatlari	m.s	111769,3	149605,2	172522,1	154,4
	SHundan ish xaki	m.s	33327,2	34119,1	40066,2	120,2
3	Xodimlar soni	nafar	47	45	45	95,7
4	YAlpi maxsulot	m.s	126223,1	170315,8	207102,3	164,1
5	Foyda	m.s	14453,8	20710,6	34580,2	239,2
6	Fermer daromadi	m.s	47780,9	54829,7	74646,4	156,2
	1 ga xisobiga:	m.s				
7	a) yalpi maxsulot	m.s	1612,0	2175,2	2645,0	164,1
	b) fermer daro madii	m.s	610,2	700,3	953,3	156,2
	1 xodim xisobiga:	m.s				
8	a) yalpi maxsulot	m.s	2685,6	3784,8	4602,3	171,4
	b) ish xaki	m.s	709,1	758,2	890,4	125,6
9	Rentabellik	%	12,9	13,8	20,0	7,1

**4- Jadval** ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, oxirgi 3 yilda ho'jalikning iqtisodiy samaradorligi biroz yaxshilangan. Buni biz samaradorlikning yakunlovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichi bo'lgan rentabellik darajasidan yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Rentabellik darajasi 2011yilda 12,9 %ni, 2014 yil davriga kelib 20.0 % foizni tashkil etgan va 2011 yilga nisbatan 7,1%ga oshganligini ma'lumotlar tasdiqlaydi.

Fermer xo'jaligida ishlab chiqarish xarajatlari 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 54,4 %ga ortgan, yalpi maxsulot qiymati 64,1 %ga oshgan. Samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan foyda ham 139,2 %ga ko'paygan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligining oxirgi 3 yil mobaynidagi iqtisodiy samaradorligi biroz yaxshilangan.

Buloqboshi tumanidagi Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligini paxta yetishtirish iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari 5 - jadvalda aks ettirilgan [51].

**5- Jadval** ma'lumotlaridan paxta ekin maydonini 2011 yilda 50 ga dan 2014 yilda 9,7 ga ga kamayganligini va 40,3 ga ni tashkil etganligini , paxta xosildorligi esa 5,9 %ga ortganini, ishlab chiqarishni xarajatlari 2014 yilda 99131,5 ming so'mni tashkil etib, 2012 yilga nisbatan 28,3 %ga o'sganligini, yalpi maxsulot 31,8 %ga o'sgan, foyda esa 105,2 %ga ortganligini ko'rishimiz mumkin. Rentabellik darajasi 4,8%dan 7,7 %gacha oshganligini ma'lumotlar tasdiqlaydi. Rentabellik darajasini foydaning ishlab chiqarish harajatlariga nisbati orqali topilishini inobatga oladigan bo'lsak, ravshan bo'ladiki, foydaning darajasi Yuqori va harajatlarning nisbatan past darajada bo'lishi talab etiladi. Lekin bu hali paxtachilikda optimal xolat emas, shuning uchun paxtachilikdagi optimal rentabellikga erishish chora tadbirlarini amalga oshirish darkor.

Aks holda xo'jalik paxta yetishtirish bo'yicha kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni o'z mablag'lari hisobiga amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Har qanday qishloq xo'jaligi mahsulotini, jumladan paxta xom ashyosini yetishtirish uchun moddiy-texnika resurslaridan, yer, suv va mehnat resurslaridan foydalaniladi. Paxta yetishtirishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish fermer xo'jaligining mahsulot yetishtirish va realizatsiya qilishga sarflanadigan barcha harajatlarning puldagi ifodasi bo'lgan

**Buloqboshi tumanidagi Abdupattaev Abduvaxob fermer xujaligida  
paxta yetishtirishning iktisodiy samardorligi**

**5-jadval**

№	Kursatkichlar	ulchov birligi	2011	2012	2013	2013 yilda 2011 yilga nisbatan %
1	Ekin maydoni	ga	50	45,3	40,3	80,6
2	Xosildorlik	ts/ga	29,0	31,5	30,7	105,9
3	YAlpi xosil	ts	1450,0	1427,0	1237,2	85,3
4	Ishlab chikarish xara-jatlari	m.s	77282,1	103921,3	99131,5	128,3
	SHundan ish xaki	m.s	24498,4	24525,4	24287,2	99,1
5	Xodimlar soni	nafar	41	38	38	92,7
6	YAlpi maxsulot	m.s	81019,5	109817,9	106800,9	131,8
7	Foyda	m.s	3737,4	5896,6	7669,5	205,2
8	Fermer daromadi	m.s	28235,8	30422,0	31956,7	113,2
9	1ts paxtani tannarxi	sum	53298	72827,6	80125	150,3
10	1ts paxtani sotish baxosi	sum	55875,5	76959,9	86324	154,5
11	1 ga xisobiga: a) yalpi maxsulot	m.s	1620,4	2424,2	2650,1	163,5
	b)xarajatlar	m.s	1545,6	2294,1	2459,8	159,1
	v) fermer daromadi	m.s	564,7	671,6	793,0	140,4
12	1 xodim xisobiga: a) yalpi maxsulot	m.s	1976,1	2889,9	2810,6	142,2
	b) ish xaki	m.s	597,5	645,4	639,1	107,0
13	Rentabellik	%	4,8	5,7	7,7	2,9

Fermer xo'jaligida yetishtirilayotgan maxsulotlarga sarflanayotgan moddiy xarajatlar va ularni taxlil qilish fermer xo'jaligini qanday xolatda ekanligini

aniqlashga yordam beradi. SHundan kelib chiqib Buloqboshi tumanidagi Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligida paxta yetishtirish xarajatlari va ularni aks etirilgan 6-jadval ma'lumotlaridan ko'rib taxlil etishga kirishdik [51].

**6-jadval** ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, xo'jalikda 2014 yilda paxta yetishtirish xarajatlari tarkibida moddiy xarajatlarning ulushi 55,9 %ni tashkil etgan va 2012 yilga nisbatan biroz ortgan. 2014 yilda jami xarajatlar tarkibida mexnat xaqi xarajatlari 24,5 %ni, ammortizatsiya ajratmalari 2,7%ni, boshqa xarajatlar 16,1 %ni tashkil etgan.

**Buloqboshi tumanidagi Abdupattaev Abduvaxob fermer xujaligida paxta yetishtirish xarajatlari tarkibi**

**6-jadval**

№	Xarajatlar turi	2011	%	2012	%	2013	%
1	Moddiy xarajatlar	50774,3	65,7	54246,9	52,2	55414,5	55,9
	a) uruglik	7650,9	9,9	6235,3	6	6443,5	6,5
	b) ugitlar	16306,5	21,1	22343,1	21,5	22502,8	22,7
	v) YO.M.M	14297,2	18,5	14445,1	13,9	12292,3	12,4
	g) ish va xizmatlar	12519,7	16,2	11015,7	10,6	9615,8	9,7
	d) boshka moddiy xarajatlar	0,0		5300,0	5,1	4560,0	4,6
2	Mexnat xaki xarajatlari	24498,4	31,7	24525,4	23,6	24287,2	24,5
3	Ijtimoiy ajratmalar	772,8	1	727,4	0,7	793,1	0,8
4	Asosiy vositalar va no-moddiy aktivlarni eski-rishi	1236,5	1,6	9041,2	8,7	2676,5	2,7
5	Boshka xarajatlar	0,0		15380,4	14,8	15960,2	16,1
	jami	77282,1	100	103921,3	100	99131,5	100

7-jadvalda Buloqboshi tumanidagi paxtachilik fermer xo'jaliklari o'rtacha ko'rsatkichlari bilan Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligini paxta yetishtirish bo'yicha solishtirma iqtisodiy ko'rsatkichlari aks ettirilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki A.Abdupattaev fermer xo'jaligini paxtachilikdagi iqtisodiy ko'rsatkichlari Buloqboshi tumani fermer xo'jaliklarining o'rtacha ko'rsatkichlaridan biroz yaxshi. Buni biz, 1 tsentner paxta tannarxini arzonligida, 1 tsentner paxtaning o'rtacha sotish baxosini

Yuqoriligida va nixoyat paxtachilikdagi iqtisodiy samaradorlikning yakuniy ko'rsatkichi bo'lgan rentabellik darajasini 6,5 foizga Yuqoriligida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

**Buloqboshi tumanidagi paxtachilik fermer xo'jaliklari o'rtacha ko'rsatkichlari bilan Abdupattaev Abdavaxob fermer xo'jaligini paxta yetishtirish bo'yicha solishtirma iqtisodiy ko'rsatkichlari. 2014 yil.**

**7-jadval**

No	Kursatkichlar	Ulchov birligi	Buloqboshi tumanida 2014 yil paxtachilikdagi jami fermer xo'jaliklari bo'yicha	A.Abdpattaev fermer xo'jaligi bo'yicha	A.Abdupattaev fermer xo'jaligida Buloqboshi tumani bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlarga nisbatan ,%
1	Ekin maydoni	ga.	3304	40,3	X
2	Xosildorlik	ts\ga	33,3	30,7	92,2
3	YAlpi xosil	tsentner	110023,2	1237,21	X
4	Ishlab chikarish xarajatlari	m.sum	8 676 429,6	94186,3	X
5	1 tsentner paxtani tannarxi	sum	78860	76128	96,5
6	1 tsentner paxtani sotish baxosi	sum	84280	86324	102,4
7	YAlpi maxsulot	m.sum	9272755	106800,9	X
8	Foyda	m.sum	596325,7	12614,6	X
	1 ga xisobiga:				
9	a)xarajatlar	m.sum	2626,0	2337,1	89,0
10	a) yalpi maxsulot	m.sum	2806,5	2650,1	94,4
11	b) foyda	m.sum	180,5	313,0	173,4
12	Rentabellik	%	6,9	13,4	6,5

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar fermer xo'jaligida paxta yetishtirishda tuman fermer xo'jaliklarining o'rtacha ko'rsatkichlariga nisbatan biroz yaxshi natijalarga erishilayotganligidan dalolat beradi. Lekin, paxtachilikdagi bu ko'rsatkichlar xali talab darajasida emas. Fermer xo'jaligi paxtachiligida optimal rentabellikni ta'minlash chora tadbirlarini ishlab chiqish zarur deb xisoblaymiz. Fermer xo'jaligi iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llarini aniqlash Yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlarimiz davomida biz xo'jalikda bug'doy

yetishtirish iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganish, tahlil etish lozim deb topdik.

**8- jadvalda** Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligida bug'doy ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi aks ettirilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaligida bug'doy xosildorligi 2012 yilga nisbatan 2014 yilda gektariga 49 tsentnerdan 64,1 tsentnergacha, ya'ni 30,8 %ga ortgan [51].

Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligida bug'doy yetishtirishda yalpi maxsulotning oxirgi uch yil mobaynidagi o'sish darajasi ishlab chiqarish xarajatlarini o'sish darajasidan ustun bo'lgan. SHu asosda oxirgi uch yil mobaynida fermer xo'jaligida 1 tsentner bug'doyning o'rtacha sotish baxosi 26,3 foizga o'sgani xolda 1 tsentner bug'doy tannarxining o'sishi 21,1 foizni tashkil etgan. Bug'doy yalpi mahsuloti qiymati 2012 yildagi 45203,6 ming so'mdan 2014 yilda 100301,4 ming so'mga yetgan yoki 121,9 % ga ortgan. Buning asosiy omillari sifatida 1 ts bug'doyning sotish bahosi ortishini va yalpi xosilning 75,7 %ga ortishini ko'rsatish mumkin.

Yuqoridagi barcha ko'rsatkichlarni umumlashtirgan holda g'allachilikda yakuniy iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi bo'lgan rentabellikni aniqlash mumkin. Fermer xo'jaligining g'allachilikdan olgan foydasini jami ishlab chiqarish harajatlariga nisbatini foiz hisobida olish natijasida aniqlangan rentabellik darajasi 2012 yildagi 31,1 % darajadan 2014yilda 36,7 % gacha oshgan.

Hozirgi sharoitda g'allachilikda optimal rentabellik bo'lgan 50-55%li rentabellik darajasiga erishish uchun hali imkoniyatlarni topish zarur. Bu ko'rsatkichning yetarli darajada ekanligiga sabab, yalpi mahsulot hajmini ishlab chiqarish harajatlariga nisbatan past darajada o'sishi hisoblanadi.

Xo'jalikning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda asosiy omillardan biri ishlab chiqarish harajatlari hisoblanadi. Mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarish harajatlari qancha kam bo'lsa, samaradorlik shuncha Yuqori bo'ladi.

**Buloqboshi tumanidagi Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligida bo'g'doy ishlab chikarishning iqtisodiy samaradorligi**

**8-jadval**

No	Ko'rsatkichlar	ulchov birligi	2011	2012	2013	2013 yilda 2011 yilga nisbatan %
1	Ekin maydoni	ga	28,3	33	38	134,3
2	Xosildorlik	ts/ga	49,0	53,0	64,1	130,8
3	YALpi xosil	ts	1386,7	1749,0	2435,8	175,7
4	Ishlab chikarish xara-jatlari	m.s	34487,2	45683,9	73390,7	212,8
	SHundan ish xaki	m.s	8828,7	9593,6	15779,0	178,7
5	Xodimlar soni	nafar	6	7	7	116,7
6	YALpi maxsulot	m.s	45203,6	60497,9	100301,4	221,9
7	Foyda	m.s	10716,4	14814,0	26910,7	251,1
8	Fermer daromadi	m.s	19545,1	24407,6	42689,7	218,4
9	Its bugdoyni tannarxi	sum	24870	26120	30130	121,1
10	Its bugdoyni sotish baxosi	sum	32598	34590	41178	126,3
11	1 ga xisobiga: a) yalpi maxsulot	m.s	1597,3	1833,3	2639,5	165,2
	b) xarajatlar	m.s	1218,6	1384,4	1931,3	158,5
	b) fermer daromadi	m.s	690,6	739,6	1123,4	162,7
12	1 xodim xisobiga: a) yalpi maxsulot	m.s	7533,9	8642,6	14328,8	190,2
	b) ish xaki	m.s	1471,5	1370,5	2254,1	153,2
13	Rentabellik	%	31,1	32,4	36,7	5,6

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning hozirgi bosqichida ishlab chiqarish harajatlarning muntazam ortib borishi qonuniyatli jarayondir. Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligida bug'doy yetishtirish uchun sarflangan harajatlarni 9-jadval yordamida ko'rib chiqamiz.

**9-Jadval** ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaligida bug'doy yetishtirish xarajatlarning asosiy qismini moddiy xarajatlar tashkil etmoqda. Qishloq xo'jaligida asosiy ekinlardan biri xisoblangan bug'doyni yetishtirishda iqtisodiy samaradorlikni oshirish maqsadida donchilik xarajatlari tarkibidagi moddiy xarajatlardan tejab tergab foydalanishni talab etadi[51].

**Buloqboshi tumanidagi Abdupattaev Abduvaxob fermer xujaligida yetishtirilgan bug'doy tannarxi va uni xarajat turlari bo'yicha taqsimlanishi.**

**9-jadval**

<b>№</b>	<b>Xarajatlar turi</b>	<b>2011</b>	<b>%</b>	<b>2012</b>	<b>%</b>	<b>2013</b>	<b>%</b>
1	Moddiy xarajatlar	21347,6	61,9	30608,2	67	49098,3	66,9
	a) urug'lik	3966,0	11,5	5482,1	12	8513,3	11,6
	b) ug'itlar	5931,8	17,2	8451,5	18,5	13136,9	17,9
	v) YO.M.M	4069,5	11,8	5619,1	12,3	9173,8	12,5
	g) ish va xizmatlar	5173,1	15	8314,5	18,2	13577,3	18,5
	d) boshka moddiy xarajatlar	2207,2	6,4	2741,0	6	4697,0	6,4
2	Mexnat xaki xarajatlari	8828,7	25,6	9593,6	21	15779,0	21,5
	Ijtimoiy ajratmalar	1448,5	4,2	1827,4	4	3155,8	4,3
4.	Asosiy vositalar va no-moddiy aktivlarni eskirishi	1310,5	3,8	1827,4	4	2568,7	3,5
5	Boshka xarajatlar	1551,9	4,5	1827,4	4	2788,8	3,8
	Jami	34487,2	100	45683,9	100	73390,7	100

Buloqboshi tumani Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jalikda 2014 yilda 2012 yilga nisbatan ishlab chiqarish xarajatlardan moddiy xarajatlarning ulushi biroz kamaygan. 2012 yilda moddiy xarajatlar 61,9 % ni tashkil etgan, 2014 yilda esa – 66,9 %. Qishloq xo'jalik maxsulotlari yetishtirish texnologiyasida urug'lik, o'g'itlar, YOMM va turli xizmatlar aloxida o'rin tutadi lekin Yuqorida keltirilgan vazifalardan kelib chikib bu turdagi xarajatlarni tejash bilan bog'liq bo'lgan chora tadbirlarni amalga oshirish kerak bo'ladi.

**10-jadvalda** Buloqboshi tumanidagi fermer xo'jaliklari o'rtacha ko'rsatkichlari bilan Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligini bug'doy yetishtirish bo'yicha solishtirma iqtisodiy ko'rsatkichlari aks ettirilgan. Jadval ma'lumotalidan ko'rinib turibdiki, A.Abdupattaev fermer xo'jaligini g'allachilikdagi iqtisodiy ko'rsatkichlari Buloqboshi tumani fermer xo'jaliklarining o'rtacha ko'rsatkichlaridan biroz yaxshi. Buni biz, 1 tsentner bug'doyning tannarxini arzonligida, 1 tsentner bug'doyning o'rtacha sotish baxosini Yuqoriligida va nixoyat g'allachilikdagi iqtisodiy samaradorlikning

**Buloqboshi tumanidagi fermer xo'jaliklari o'rtacha ko'rsatkichlari bilan Abdupattaev Abdavaxob fermer xo'jaligini bug'doy yetishtirish bo'yicha solishtirma iqtisodiy ko'rsatkichlari.2014 yil.**

**10-jadval**

№	Kursatkichlar	O'lchov birligi	Buloqbosh tumanida 2014 yil bug'doy yetish tirishdagi buyicha	Buloqboshi tumanidagi A.Abdupattoev fermer xo'jaligi bo'yicha	A.Abdupattoev fermer xo'jaligida Buloqboshi tumani bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlariga nisbatan ,%
1	Ekin maydoni	ga.	3343	38	X
2	Xosildorlik	ts\ga	63,1	64,1	101,6
3	YAlpi xosil	tsentner	210943,3	2435,8	X
4	Ishlab chikarish xarajatlari	m.sum	6 271 344,3	73390,7	X
5	1 tsentner bugdoyni tannarxi	sum	29730	30130	101,3
6	1 tsentner bugdoyni sotish baxosi	sum	40060	41178	102,8
7	YAlpi maxsulot	m.sum	8450389	100301,4	X
8	Foyda	m.sum	2179044,3	26910,7	X
	1 ga xisobiga:				
9	a)xarajatlar	m.sum	1876,0	1931,3	103,0
10	a) yalpi maxsulot	m.sum	2527,8	2639,5	104,4
11	b) foyda	m.sum	651,8	708,2	108,6
12	Rentabellik	%	34,7	36,7	1,9

yakuniy ko'rsatkichi bo'lgan rentabellik darajasini 1.9 foizga Yuqoriligida ko'rishimiz mumkin.

Agrar soxadagi iqtisodiy islohotlarni chukurlashtirish negizida qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish uchun mahsulot yetishtirishni ko'paytirish, sifatini yaxshilash va yo'qotishlarni kamaytirishga qatta e'tibor berilmoqda. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda asosiy vositalardan, aylanma vositalarda va inson mehnatidan keng foydalaniladi. Ushbu

jarayonni amalga oshirishda asosiy vositalardan foydalanish aloxida ahamiyatga ega.

Asosiy vositalar xo'jalikni maxsulot ishlab chikarish va xizmat ko'rsatish jarayonida, madaniy maishiy sohasida foydalanib kelinadi. Asosiy vositalarni xolati, imkoniyati, miqdori, kuvvati mahsulot ishlab chikarish xajmiga, muddatiga, ishni sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin.

**11-jadval** ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki oxirgi uch yil ichida fermer xo'jaligining ekin maydoni o'zgarmagan, lekin asosiy vositalari o'rtacha qiymati 2014 yil 2012 yilga nisbatan 101,6 foizga biroz o'zgaraganini ko'rishimiz mumkin. Xodimlar soni 2 nafarga kamaygan holda 2012 yilga nisbatan 95,7% ni tashkil etdi. Jami ishlab chikarish xarajatlari 111769,3 ming so'mdan 167577,0 ming so'mga, ya'ni 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 49,9% ga, shundan ish haki fondi 33327,2 ming so'mdan 38854,6 ming so'mga, ya'ni 16,6% ga oshgan.

Fond bilan ta'minlanganlik, ya'ni bir gektar xisobiga to'g'ri kelgan asosiy vositalar qiymati 2012 yilda 1262,7 ming so'mni tashkil etib, u 2014 yilga kelib 1283,1 ming so'mga ortganini yani 101,6 foizga ko'payganini ko'rishimiz mumkin. Lekin, Yuqorida keltirilgan iqtisodiy ko'rsatkichlar asosidagi erishilgan samaradorlik ko'rsatkichlari xali talab darajasida emas, shuning uchun xam samardorlikni optimal darajaga yetkazish chora tadbirlarini ishlab chiqish zarur deb xisoblaymiz.

Xo'jalikning fond bilan qurollanishi, 2012 yilda 2103,6 ming so'mni tashkil etib, u 2014 yilga kelib 2232,7 ming so'mga ortganini yani 106,1 foizga ko'payganini ko'rishimiz mumkin.

Fondlar kaytimi uch yil ichida 1276,7 so'mdan 2061,3 so'mga yoki 161,5 foizga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. SHu bilan birgalikda bu davr ichida fondlar sig'imi 783,3 so'mdan 435,1 sumga kamayganligini yoki 61,9 foizni tashkil etayotganini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda A.Abdupattayev fermer xo'jaligi Andijon viloyati Buloqboshi tumanidagi barqaror rivojlanayotgan ilg'or fermer ho'jaliklardan biri bo'lib hisoblanadi. Lekin, fermer ho'jaligini iqtisodiy jihatdan rivojlantirish bo'yicha hali foydalanilmagan imkoniyatlari mavjud.

**Buloqboshi tumanidagi A.Abdupattayev fermer xo'jaligida asosiy vositalardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi**

**11-jadval.**

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2012 y	2013 y	2014 y	2014 yilda 2012 yilga nisbatan%
1.	Ekin maydoni	ga	78,3	78,3	78,3	100
2	Xodimlar soni	nafar	47	38	45	95,7
3.	Asosiy vositalar	m.so'm	98870,0	100470,0	100470,0	101,6
4	Jami i/ch xarajati	m.so'm	111769,3	149605,2	167577,0	149,9
	-ish haqi	m.so'm	33327,2	34119,1	38854,6	116,6
5	YAlpi mahsulot		126223,1	170315,8	207102,3	164,1
6	Foyda	m.so'm	14453,8	20710,6	39525,3	273,5
	Bir gektar xisobiga:					
7	-xarajat	m so'm	1427,4	1910,7	2140,2	149,9
	-yalpi mahsulot	m.so'm	1612,0	2175,2	2645,0	164,1
	-foyda	m.so'm	184,6	264,5	504,8	273,5
	Bir xodim xisobiga:					
8	-ekin maydoni	ga	1,7	2,1	1,7	104,4
	-yalpi mahsulot	m.so'm	2685,6	4482,0	4602,3	171,4
	- foyda	m.so'm	307,5	545,0	878,3	285,6
	- ish haqi	m.so'm	709,1	897,9	863,4	121,8
	Asosiy vositalardan foydalanish					
9	Fondlar bilan ta'minlanish	m so'm	1262,7	1283,1	1283,1	101,6
	Fondlar bilan kurollanish	m so'm	2103,6	2643,9	2232,7	106,1
	Fondlar kaytimi	so'm	1276,7	1695,2	2061,3	161,5
	Fondlar sigimi	so'm	783,3	589,9	485,1	61,9
10	Rentabellik	%	12,9	13,8	23,6	10,7

Tashkiliy-iqtisodiy omillar «A.Abdupattayev» fermer xo'jaligi rivojida aloxida ahamiyatga ega bulib, xo'jalik tomonidan ma'lum maksad Yunalishida boshkarishga moyil bulgan va yakuniy iqtisodiy natijalarga kuchli ta'sir

etuvchi omillar katoriga kiradi.

A.Abdupattayev fermer xo'jaligida asosiy vositalardan foydalanib paxtachilikni rivojlantirish va iqtisodiy samaradorligini oshirishda mexnat unumdorligini oshirib borish muxim ahamiyatga egadir. Paxtachilikda mexnat unumdorligi maxsulot birligini ishlab chiqarishga ketadigan mexnat sarflarini kamayib borish jarayonidir va quyidagilar bilan asoslanadi:

- xo'jalikning moliyaviy mablag barkarorligi;
- samarali moddiy-texnika va xizmatlar bozorini mavjudligi;
- ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashganlik darajasi;
- jonli mexnatdan kamroq foydalanish va boshkalar.

Paxtachilikda moddiy-texnika resurslari ta'minoti masalasi tarmokni rivojlanishiga keskin ta'sir utkazuvchi omillardan xisoblanib, bozor munosabatlariga utish sharoitida ularning xarid baxolari yetishtirilayotgan xom ashyo xarid baxolari bilan mutanosib bulishi talab etiladi. Aksincha, sanoatda ishlab chiqarilib paxtachilikda foydalanilayotgan moddiy texnika resurslarining narxlari va paxta xom ashyosi xarid narxlari urtasidagi nomutanosiblik paxta tannarxini Yukori bulishiga sabab bulib, bu xolat paxtachilik iqtisodiy samaradorligiga uzining jiddiy salbiy ta'sirini utkazishi mumkin. Ammo, paxtachilik iqtisodiy samaradorligi moddiy texnika vositalarining narxlari bilan bir katorida ulardan samarali foydalanishga xam boglikdir. Moddiy-texnika vositalaridan samarali foydalanmaslik okibatida agrotexnik tadbirlarni uz vaktida utkazilmaslik xolatlari tuprok unumdorligining pasayib ketishi xamda paxta xosildorligining kamayib ketishiga sabab buladi.

Xulosa kilib aytganimizda, asosiy vositalardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni tugri belgilanishi moliyaviy iqtisodiy inqiroz sharoitida strategik maxsulot xisoblangan paxta xom ashesi yetishtirishni kupaytirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi deb xisoblaymiz.

Asosiy vositalardan foydalanib, mahsulot yetishtirishda ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirishning asosiy yo'li yalpi mahsulotni ishlab chiqarish harajatlariga nisbatan ustuvor darajada oshishini ta'minlashdir. SHundagina 1

tsentner mahsulot yetishtirish uchun sarflangan jami harajatlar miqdorini kamaytirish mumkin bo'ladi. SHu o'rinda yalpi mahsulotni ishlab chiqarish harajatlariga nisbatan kamida 2 marta ko'p oshirishga erishish 1 birlik mahsulotga sarflangan harajatlarning 20-30% kamayishini ta'minlaydi.

Fermer xo'jaligida asosiy vositalar texnikalar yetarli miqdorda bo'lmasa, qishloq xo'jaligi ishlari o'z agrotexnik muddatlarida bajarilmaydi. Bu o'z navbatida mahsulot ishlab chiqarish darajasining pasayishiga olib keladi. Demak, ishlab chiqarishda asosiy vositalar va moddiy-texnika resurslarining ahamiyati katta. Fermer xo'jaliklarining moddiy-texnika bazasi mustahkam bo'lsa, ularda iqtisodiy jihatdan rivojlanish Yuqori bo'ladi.

Fermer xo'jaligida asosiy vositalardan foydalanib yetishtiriladigan mahsulot tannarxini pasaytirishning yo'llaridan biri mehnat unumdorligini oshirishdir. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari 1 ts mahsulotga mehnat sarfi, 1 gektar yerga mehnat sarfi, o'rtacha 1 ishlovchiga yalpi mahsulot va yalpi foyda hamda bir birlik mehnat sarfiga yalpi mahsulot, sof foyda hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar fermer xo'jaligida mehnatning samaradorligini ko'rsatadi.

O'z-o'zidan ma'lumki, paxta yetishtirish harajatlarini kamaytirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishini ta'minlaydi. Buloqboshi tumanidagi «A.Abdupattayev» fermer xo'jaligida yalpi mahsulot hajmini ishlab chiqarish harajatlariga nisbatan ustun darajada oshirish evaziga bir birlik mahsulot yetishtirish harajatlarini kamaytirish imkoniyatlari mavjud. Bu esa iqtisodiy samaradorlikning oshishiga borib taqaladi.

Paxta yetishtirish samaradorligini oshirishning omillaridan biri xo'jalikda mineral va organik o'g'itlardan ilmiy asoslangan tavsiyalarga asosan foydalanishni ta'minlashdir. Ushbu tavsiyalarga rioya qilinganda yalpi hosil miqdori 20-22 foizgacha ortishi mumkin. Bundan tashqari xo'jalik a'zolarining va mahalla fuqarolarining uylaridan organik o'g'itlarni chiqarib, xo'jalik ekin maydonlariga solish kerak.

Paxta hosilining turli kasallik va zararkunandalar tomonidan nobud bo'lishiga yo'l qo'ymaslik zarur. SHuning uchun o'simliklarni himoya qilish xizmatidan unumli foydalanish zarur.

A.Abdupattayev fermer xo'jaligida ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlashning yaxshilanishi paxta yetishtirishda samaradorlikni oshirishning omillaridan biri hisoblanadi. Chunki harajatlar tarkibida texnik xizmat ko'rsatish uchun harajatlar salmoqli 10-11 foizni tashkil etmoqda.

A.Abdupattayev fermer xo'jaligiga urug'lik, mineral o'g'itlar, yoqilg'i-moylash materiallari va bankdan kredit olish bo'yicha tuzilgan shartnomalarini yanada takomillashtirish, moddiy resurslarni xo'jalikka yetkazib berilishida uzilishlarga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarur.

Xo'jalikka yetkazib berilayotgan moddiy resurslarning bahosini xo'jalik yetkazib berayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga mutanosib tarzda qayta ko'rib chiqilishi kerak. Chunki moddiy-texnika resurslari bahosi Yuqori bo'lib, bu o'ziga xos qiyinchiliklarni Yuzaga keltirmoqda. Xo'jalik sotayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining harid narxlari esa xo'jalikni qoniqtirmaydi.

Yuqoridagi barcha chora-tadbirlarni o'zida jamlagan holda «A.Abdupattayev» fermer xo'jaligida asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini 35-40% gacha oshirish mumkin. Buning uchun Yuqorida tavsiya qilingan tadbirlarni o'zida jamlagan paxta ishlab chiqarish samaradorligini oshirish dasturini tuzish tavsiya etiladi.

A.Abdupattayev fermer xo'jaligini iqtisodiy mustahkamligini va iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda jadal rivojlantirish bo'yicha amaliy ahamiyatga ega bo'lgan takliflarni ishlab chiqishda bizga fermer xo'jaligining boshlig'i va uning a'zolari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar amaliyotga bevosita taalluqli bo'lib, ulardan fermer xo'jaligini jadal rivojlantirish istiqbollari belgilashda samarali foydalanish mumkin.

A.Abdupattayev fermer xo'jaligida paxta xom-ashyosi yetishtirish bo'yicha yangi texnologiyalardan foydalanish asosida ularni hosildorligini 40-45 tsentnerga ko'tarishni hamda ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini keskin oshirishni ko'zda tutmoqda.

A.Abdupattayev fermer xo'jaligida asosiy vositalardan foydalanib ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali paxta yetishtirishning rentabelligini optimal

darajaga ko'tarish talab qilinadi. Aks holda fermer xo'jaligi kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun yetarlicha imkoniyatini qo'ldan boy berishi mumkin. SHuning uchun ham fermer xo'jaligi mahsulot tannarxini pasaytirish va uni sifatini yaxshilash asosida mahsulot birligini o'rtacha sotish bahosini ko'tarish chora-tadbirlarini ko'rish kerak. Bu fermer xo'jaligiga ishlab chiqarish xarajatlariga qaraganda yalpi mahsulot xajmini ustun darajada o'stirish va foyda massasini keskin ko'paytirish imkiniyatini beradi.

A.Abdupattayev fermer xo'jaligini jadal rivojlantirilishi unda faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassis kadrlarning bilim darajasiga, tadbirkorlik va ishbilarmonlik qobiliyatlariga hamda bozor iqodiyoti sharoitida mustaqil fikrlay olishlari bilan uzviy darajada bog'liq bo'ladi. SHu maqsadda fermer xo'jaligini xodimlarining kasbiy tayyorgarligini oshirish va ularda bozor munosabatlari bo'yicha ko'nikmani hosil qilishga e'tiborni qaratish lozim. CHet el tajribalari shuni ko'rsatadiki fermerlar odatda kamida 10-12 ta yo'nalish bo'yicha kasbiy tayyorgarlikka ega bo'ladilar. Bu masalada A.Abdupattayev fermer xo'jaligining jamoasi katta o'zgarishlarni amalga oshirishlari zarur. Sababi, fermer xo'jaligining 28 ta faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning bittasi oliy ma'lumotga ega xolos. Undan tashqari xodimlarning barchasi faqatgina bittadan qo'shimcha kasbiy-tayyorgarlikka ega xolos.

Ayni paytda xo'jalik ixtiyoridagi barcha asosiy va aylanma fondlar (vositalar)dan yil davomida, oqilona hamda samarali foydalanishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni vaqtida, sifatli amalga oshirish lozim. SHundagina korxonalarining joylashishi, ixtisoslashishi va ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanganligiga, ular o'rtasidagi mutanosiblikka alohida e'tibor beriladi. Agarda mazkur xo'jalik barcha vositalar bilan talab darajasida yaxshi ta'minlanmagan bo'lsa, bu masalani hal etish imkonini beruvchi tadbirlarni, yo'llarni aniqlash zarur. Jumladan, asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi masalalar vaqtida, sifatli amalga oshirilishini ta'minlashga doimo e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

- A.Abdupattayev fermer xo'jaligining asosiy vositalar bilan ta'minlanganligini me'yoriga yetkazishga, ular o'rtasidagi mutanosiblikni, ya'ni

bir dona qishloq xo'jalik mashinasiga bir nechta mexanizmlar bo'lishini ta'minlashga;

- mehnat vositalarning holatini, ya'ni ishga yaroqliligini yaxshilashga, ularning mustahkamligini ta'minlashga;

- MMTP ning texnik xizmat ko'rsatishini yaxshilash, tez va arzonroq qurish, rejadagi mavjud qurilish materiallaridan oqilona foydalanishga;

- sanoat korxonolari yetkazib beradigan asosiy vositalar – qishloq xo'jalik mashinalari va texnikalarini arzonroq baholarda, qulayroq usullarda sotib olishga;

- qishloq xo'jaligiga yangi, samarali texnologiyalarni joriy qilish va hokazolar;

- mexanizator kadrlarning malakasini oshirish, ularni rag'batlantirishni rivojlantirishga.

- mavjud asosiy vositalardan samarali foydalanish uchun qo'shni fermerlarga texnik xizmat ko'rsatishni mukammal shartnomalar asosida yo'lga qo'yish zarur.

Bu kabilarning hal etilishi kelajakda qishloq xo'jaligidagi asosiy aylanma vositalardan, fondlardan, mablag'lardan yil davomida samarali foydalanilishini ta'minlaydi.

Buloqboshi tumanidagi A.Abdupattayev fermer xo'jaligida yalpi mahsulot hajmini ishlab chiqarish harajatlariga nisbatan ustun darajada oshirish evaziga bir birlik paxta yetishtirish harajatlarini kamaytirib, asosiy vositalardan foydalanishda iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlari mavjud.

Xo'jalikka yetkazib berilayotgan asosiy vositalar va moddiy resurslarning bahosini xo'jalik yetkazib berayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga ekvivalent mutanosib tarzda qayta ko'rib chiqilishi kerak. Chunki moddiy-texnika resurslari bahosi o'ta Yuqori bo'lib, bu o'ziga xos qiyinchiliklarni Yuzaga keltirmoqda.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekistonga ta'sirini Yumshatish choralarida ko'rsatilganidek mahsulot tannarxini yangi zamonaviy texnologiyalar joriy qilish hisobiga kamida 20%ga kamaytirishga erishish zarur. A.Abdupattayev fermer xo'jaligida paxta va don yetishtirish bo'yicha samarali texnologiyalarni qo'llash asosida ishlab chiqarishning rentabellik darajasini optimal darajaga yetkazish chora-tadbirlarini ko'rish zarur. Masalan magnit bilan sug'orish

hosildorlikni 5-8%gacha oshirish imkonini beradi.

Ho'jalikda ishlab chiqarish harajatlarning tarkibi yaxshilashga ham alohida e'tibor berish lozim. Bunda moddiy harajatlarning ulushini oshishiga va ular tarkibini yaxshilanishiga e'tiborni kuchaytirish zarur. Sababi, uning tarkibigi ekinlar xosildorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi o'g'itlar, uruglik, yokilgi-moylash materiallari, ish va xizmatlar kiradi.

Ho'jalikda uzoq muddatli ijaraga olingan yer uchastkasining meliorativ holatini yaxshilash, mineral va mahalliy o'g'itlardan samarali foydalanish hamda dexqonchilik madaniyatini oshirish asosida tuproq unumdorligini muntazam oshirib borish choralarini ko'rish lozim.

Istiqbolda A.Abdupattayev fermer xo'jaligida qo'shimcha asosiy vositalarni olib, qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasini tashkil etish hamda bu jarayonga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etilishiga ham e'tiborni kuchaytirish zarur. Bu fermer xo'jaligini iqtisodiy jihatdan mustaqilligini oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlanishi imkoniyatini beradi.

Xo'jalik boshlig'i fermer xo'jaligini tashkiliy-iqtisodiy asoslaridan xabardor bo'lgan holda harajatlarni oqilona taqsimlash kerak. Asosiy vositalardan samarali foydalanish uchun xo'jalikka maxsus ma'lumotli kadrlarni ham ishga jalb qilish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil oktyabrdagi fermer xo'jaliklari yer maydonlarini yanada maqbullashtirish to'g'risidagi 3287-farmon doirasida amalga oshirilgan tadbirlar natijasida Buloqboshi tumanida fermer xo'jaliklari faoliyatini tanqidiy baholash asosida ularning yer maydonlarini optimallashtirildi. Ushbu jarayonda A.Abdupattayev fermer xo'jaligining ko'rsatkichlari ijobiy baholandi. Endi bu xo'jalikni jadal iqtisodiy rivojlantirishga erishish zarur.

Yuqoridagi barcha chora-tadbirlarni o'zida jamlagan holda «A.Abdupattayev» fermer xo'jaligida moddiy-texnika resurslaridan foydalanib, bir birlik paxta yetishtirish harajatlarini 15-20% gacha kamaytirish hamda iqtisodiy samaradorlikni yana 20-22% gacha oshirish mumkin. Buning uchun Yuqorida tavsiya qilingan

tadbirlarni o'zida jamlagan fermer xo'jaligi rivojlantirish dasturi tuzish tavsiya etiladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar fermer xo'jaligida don yetishtirishda tuman fermer xo'jaliklarining o'rtacha ko'rsatkichlariga nisbatan biroz yaxshi natijalarga erishilayotganligidan dalolat beradi. Lekin, g'allachilikdagi bu ko'rsatkichlar xali talab darajasida emas. Fermer xo'jaligi g'allachiligida optimal rentabellikni ta'minlash chora tadbirlarini ishlab chiqish zarur deb xisoblaymiz.

### 2.3 May- IYun oyida g'o'za parvarishida amalga oshiriladigan agrotexnik tadbirlar bo'yicha tavsiyalar

---

Istiqlol yillarida Muhtaram Prezidentimiz tomonidan paxtachilikni rivojlantirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ushbu tarmoqning ravnaq topishida muhim poydevor bo'lib xizmat qildi va mamlakatimizda paxta yetishtirish hamda uni qayta ishlashga bo'lgan yondashuv tubdan o'zgardi. Tarmoqdagi Yutuqlar ilgarigidek raqamlar bilan emas, balki ko'riladigan sof foyda salmog'i bilan baholanadigan bo'ldi. Daromadning Yuqori bo'lishi esa ko'p jihatdan mahsulot sifatiga, demakki, g'o'za navi va uning parvarishiga bog'liq.

YUrtboshimiz istiqolning dastlabki yillaridanoq seleksioner olimlar oldiga ertapishar, kasallik va zararkunandalarga chidamli, eng muhimi, bozorda xaridorgir bo'lgan Yuqori sifatli tola beruvchi yangi navlar yaratishdek ma'suliyatli vazifani qo'ygan edi. Ta'kidlash joizki, o'tgan vaqt mobaynida mutaxassislarimiz tomonidan tola sifati Yuqori bo'lgan, tezpishar g'o'za navlarini yaratish va joriy etish, ularni mamlakatning turli tuproq-iqlim sharoitlarida oqilona joylashtirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Paxtachilik ilmiy-tadqiqot institutida Davlat standarti talablari bo'lgan navdorlik va xo'jalik qimmatli belgilarini kamida 30 yil o'zida saqlaydigan ko'plab yangi g'o'za navlari yaratilib, keng maydonlarga joriy etildi. Seleksionerlarimiz o'tgan davr ichida tola chiqishini 26–31 foizdan 34–40 foizgacha, uzunligini 26–28 millimetrdan 33–36 millimetrgacha, bitta ko'sakdagi paxta vaznini 3–5 grammdan 8–10 grammgacha oshirishga muvaffaq bo'ldi. Keyingi yillarda respublikamiz g'o'za maydonlarining 55 foizida 10 ta tezpishar, 37 foizida 6 ta o'rtapishar, 8 foizida 5 ta istiqbolli va yangi navlar yetishtirilishi ertaki, Yuqori sifatli va mo'l paxta hosili yetishtirishni ta'minlamoqda. Jumladan, 2001 yilda g'o'za maydonlarining 460,8 ming gektarida yoki 32,6 foizida institutimiz olimlari tomonidan yaratilgan navlar ekilgan bo'lsa, 2012 yil kelib bu ko'rsatkich 509,8 ming gektarni yoki 40 foizini tashkil etdi.

Bundan tashqari, seleksioner olimlarimiz tomonidan 200 dan ortiq g'o'za

navlari yaratilib, istiqbol yillarida ularning 20 tasi rayonlashtirildi, 10 tasi istiqbolli deb topildi. Ayni paytda institutimizda Buxoro-9, Buxoro-103, Oqdaryo-8, Parvoz, Paxtakor-1, Navro'z, O'zPITI-102, O'zPITI-201, O'zPITI-202, O'zPITI-1001, O'zPITI-2601 singari yangi g'o'za navlarining birlamchi urug'chilik ishlari jadal sur'atlarda olib borilayotgani kelgusida ushbu navlar ham ishlab chiqarish sharoitida katta maydonlarda ekilishi va amaliyotda o'z o'rnini topishiga asos bo'ladi.

Olimlarimiz yangi navlarni yaratish bilan birgalikda respublikamizning barcha viloyatlari sharoitlari uchun yangi iqlimlashgan va istiqbolli g'o'za navlarining o'ziga xos parvarishlash agrotexnikasini ishlab chiqish borasida ilmiy ishlarni keng miqiyosda olib borishlari natijasida, shimoliy mintaqa uchun 3 ta, janubiy mintaqa uchun 8 ta, markaziy mintaqa uchun 10 ta, Farg'ona vodiysi uchun 7 ta g'o'za navlarining agrotexnikasi ishlab chiqildi va joriy etildi.

Tuproq unumdorligini oshiruvchi va saqlovchi texnologiyalar bo'yicha aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'la ta'minlash maqsadida kuzgi bug'doydan bo'shagan maydonlarga boshqoqli va dukkakli-don, oziqa va yem xashak ekinlarini takroriy yoki oraliq ekin sifatida ekish va parvarishlash texnologiyalari ishlab chiqishga asosiy ilmiy yo'nalish sifatida qaralib, 30 dan ortiq ekinlar o'rganildi. Ularning tuproq unumdorligiga ta'sirini aniqlash va yangi qisqa navbatli almashlab ekish tizimlariga kiritish maqsadida almashlab ekishning 1:1, (kuzgi bug'doy + takroriy ekin (mosh)+oraliq ekin(javdar): g'o'za), 2:1, (kuzgi bug'doy + takroriy ekin (mosh) : kuzgi bug'doy + takroriy ekin (mosh) + oraliq ekin (javdar) : g'o'za), 2:1, (g'o'za+oraliq ekin (javdar) : g'o'za : kuzgi bug'doy + takroriy ekin (mosh) kabi turlari o'rganildi va eng samaralilari ishlab chiqarishga joriy etildi. Buning natijasida, takroriy soyadan keyin g'o'za o'stirilganda 2,6 ts/ga, moshdan keyin 1,4 ts/ga qo'shimcha paxta hosili olishga erishildi hamda takroriy mosh ekini parvarishlanganda gektaridan 1,5-1,8 tonna, soyadan 1,7-1,9 tonna don hosili olinishi qo'shimcha oziqa mahsuloti yetishtirishga imkon berdi.

Falladan so'ng takroriy ekin sifatida loviya va oraliq ekinlar sulii, javdar, raps, vika, moshni ekib, navbatlab ekishning zamonaviy tizimlari takomillashtirildi.

Tuproqni himoyalovchi texnologiyalarni ishlab chiqishda unumdorligini oshirish, ma'dan hamda mahalliy o'g'itlardan foydalanish, oziqa moddalar o'rnini to'ldirishda organo-ma'dan, mahalliy o'g'itlar va noan'anaviy agrorudalardan foydalanish, qoramol va parranda go'ngi, shahar, ipak qurti va o'simlik chiqindilaridan kompostlar tayyorlash va ularni kuzgi shudgor ostiga uch yilda bir marta gektariga 20–30 tonna yoki amal-o'suv davrida tabaqalashtirib qo'llash texnologiyalari amaliyotga joriy etildi.

Irrigatsiya eroziyasiga qarshi kurashda qiyalikni mumkin qadar o'zgartirish orqali zig-zag «qiyshiq» (kengligi 3–6 va chuqurligi 3–4 sm) mayda ko'ndalang egatlar yordamida sug'orish texnologiyasi ishlab chiqilib, suvning tezligini kamayishi hisobiga suvdan foydalanish 15–20% ga ortib, oqavaga chiqib ketayotgan suv va tuproqni Yuvilishi 40–50% ga kamayishi, tuproqni egat bo'ylab tekis namlanishi, oziqa elementlari Yuvilishi 35–40% ga kamayishi natijasida paxta hosili 3,0–3,5 ts/ga ortishi aniqlandi.

Fo'zani hamkor ekinlar (sabzi, sholg'om, turp, qizil lavlagi va boshqalar) bilan birgalikda ekilganda qator oralatib sug'orish hisobiga umumiy suv sarfi 15–20% ga tejalib, gumus va boshqa oziqa elementlarning Yuvilib ketishi 15–20% ga kamayadi, yerdan samarali foydalanish koeffitsiyenti ortadi, paxta hosili 8–10 ts/ga ko'payib, mosh, soya va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish hajmi ortadi.

Mahalliy xomashyo va resurslardan samarali foydalanish bo'yicha Markaziy Qizilqumning sanoatda ishlatilmayotgan past navli fosforitlardan (12–14% R205) oqilona foydalanish maqsadida qoramol go'ngiga 20% yoki parranda go'ngiga 10% qo'shib organo-ma'dan kompost tayyorlansa, go'ng tarkibidagi organik kislotalar yordamida fosfatlarning eruvchanligi oshib, o'simlik o'zlashtira oladigan fosfor miqdori ko'payishi aniqlandi.

Markaziy Qizilqum fosforitlari asosida olingan yangi turdagi murakkab o'g'itlardan nitrokaltsiyfosfat (NKFU) g'o'zada qo'llanilganda tuproqning agrokimyoviy xususiyatlari yaxshilanib, paxtadan 2,4–3,6 ts/ga qo'shimcha hosil olishga erishildi va Toshkent, Sirdaryo, Samarqand, Navoiy, Buxoro va boshqa

viloyatlarda katta maydonlarda qo'llanilmoqda. Respublikamizning Xovdak, Fovasoy, Guzan, Arabdasht, Bolg'ali konlaridagi bentonit va glaukonit loyqalaridan foydalanish maqsadida Surxondaryo, Andijon, Farg'ona, Toshkent viloyatlari sharoitida ilmiy izlanishlar olib borilib, go'ng+bentonit loyqalari asosida tayyorlangan kompostning tuproqning suv o'tkazuvchanligi, g'ovakligi va donadorligiga ijobiy ta'siri aniqlanib, o'simlikning makro va mikro elementlardan samarali foydalanishi bilan birga tuproqdagi namni uzoq muddat saqlab, g'o'zaning amal davrida 900–1000 m<sup>3</sup>/ga miqdorida suvni iqtisod qilishi va paxta hosilini 2–3 ts/ga oshirish imkoniyati mavjudligi isbotlandi.

Suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilish va takomillashtirish bo'yicha g'o'za qator orasiga qora polietilen plyonka to'shab sug'orilganda 30–40% suv tejalib, hosildorlik 5–10 ts/ga, somon yoki kompost to'shab sug'orilganda esa 25–30 % suv tejalib, 3–4 ts/ga qo'shimcha paxta hosili olishga erishildi. Ushbu texnologiyaning afzalligi mulcha sifatida plyonka, somon yoki kompost g'o'za qator oralariga to'shalganda suvning tuproqqa singishini yaxshilaydi, namlikning ortiqcha bug'lanishining oldi olinadi va uzoq muddat saqlanadi, o'simlikning ildiz tizimi yaxshi rivojlanib, oziqa moddalarni o'zlashtirish darajasi ortadi.

Institut olimlari istiqloq ayyomini ko'plab ilmiy-ijodiy Yutuqlar bilan kutib olish bilan birgalikda qishloq xo'jaligidagi islohatlarni jadallashtirish, mamlakatimiz aholisini oziq-ovqatga va sanoatni paxta xomashyosiga bo'lgan talabini to'liq ta'minlash, suv va boshqa resurslardan hamda mahalliy xomashyolardan samarali foydalanish, fermer xo'jaliklarida yetishtirilayotgan paxta hosildorligi va tola sifatini yaxshilash, pirovardida iqtisodiy manfaatdorlikni oshirish borasidagi nazariy va amaliy tadqiqotlarni o'tkazish uchun o'z mehnatlari va bilimlarini ayashmaydi.

Dalalarimizda mo'l va sifatli paxta hosili yetishtirish ko'p jihatdan agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish, mineral va mahalliy o'g'itlar, sug'orish inshootlaridan hamda resurstejamkor agrotexnologiyalardan unumli foydalanishga bog'liq.

May oyida havo harorati ko'p yillikka nisbatan o'rtacha 4–5 oS Yuqori

bo'lganligini inobatga olib, tuproq namini saqlash maqsadida ekin qator oralarini mayin kultivatsiya qilish maqsadga muvofiq. Sizot suvi yaqin maydonlarda g'o'za shonalashigacha qator oralariga bir marta chuqur ishlov berish lozim.

G'o'za qator oralariga shunday ishlov berish kerakki, butun vegetatsiya davrida dalalarda begona o't bo'lmasligi, sifatli ishlov berish natijasida tuproq mayin, donador holga kelib, tuproqdagi namlikning uzoq vaqt saqlanishi va zararli tuzlarning Yuqoriga ko'tarilishining oldi olinishi kerak. Bunda kultivatsiya chuqurligi va ishchi organlarining soniga alohida e'tibor berish zarur.

Qator oralari 60 sm bo'lgan mexanik tarkibi yengil, qumoq va qumli dalalarda kultivatorlarning chetki ishchi organlari (naralnik) 8–10, o'rtadagilari 12–14 sm, mexanik tarkibi og'ir, suv singishi qiyin maydonlarda 15–16 sm. gacha chuqurlikda botadigan qilib joylashtiriladi.

Qator oralari 90 sm bo'lgan dalalarda esa mos ravishda 8–10 va 14–16 sm, mexanik tarkibi og'ir, suv o'tkazish qobiliyati past yerlarda 18–20 sm. gacha botadigan qilib joylashtirilishi maqsadga muvofiq. Qatlamlab ishlov beriladigan uchastkalarda KKO ishchi organlaridan foydalaniladigan bo'lsa, har bir qator orasiga 7 ta ishchi organ joylashtiriladi. Bunda dastlabki ishlov g'o'za tupidan 10–12 sm masofada 4–5 sm chuqurlikda, ikkinchi martasida 6–8 sm, uchinchisida 8–10 sm, eng so'nggisida 14–16 sm chuqurlikda o'tkazilishi tavsiya etiladi.

CHigit qo'shqator ekilgan maydonlarda qo'shqator orasini Yumshatish uchun bir dona KKO yoki kichik lapka 5–6 sm va ikki dona ROR Yulduzchasi bilan 3–5 sm chuqurlikka ishlov beriladi. Begona o'tlar bilan kuchli zararlangan maydonlarda birinchi suvgacha kamida 2–3 marta kultivatsiya o'tkazish yaxshi samara beradi. Bunda kultivatorga pichoqlar o'rnatilib, begona o'tlarni to'liq yo'qotilishini ta'minlash talab etiladi.

CHopiq ishlarini sifatli va o'z muddatida bajarilishini tashkillashtirish lozim. Sizot suvlari yaqin tuproqda ortiqcha zax bo'lgan yerlarda tez-tez va chuqur kultivatsiya qilish ildiz chirish va sho'arning ko'chatga ta'sirini kamaytiradi. Sug'orishda g'o'zaga yetarli miqdorda suv yetkazib berish uchun tuproq sharoitidan kelib chiqib birinchi suvda jo'yak chuqurligi 14–16, keyingilarida

yengil tuproqlarda 16–18, oʻrtacha mexanik tarkibiga ega tuproqlarda 18–20, mexanik tarkibi ogʻir, suv oʻtkazuvchanligi past tuproqlarda 20–22 sm. ni tashkil etishi lozim. Aks holda, gʻoʻzaning suvga boʻlgan biologik talabi qondirilmaydi, oʻsib-rivojlanishi 10–15 kunga kechikadi, hosildorlik 5–6 ts/ga.ga kamayadi.

Nihollarning jadal oʻsib-rivojlanishida yaganalashni toʻliq va sifatli tugallashning ahamiyati katta. Qolaversa, gʻoʻzani bargidan qoʻshimcha oziqlantirish, yaʼni suspenziya bilan birga «Fitovak» (200–300 ml/ga), «Gumimaks» (0,15–0,20 l/ga) singari biostimulyatorlar bilan ishlov berish yaxshi samara beradi.

Barg orqali oziqlantirish meʼyorlari gʻoʻzaning rivojlanish darajasi, toʻplagan barglar sathi Yuzasi va koʻchat qalinligiga qarab belgilanadi. Suspenziya gʻoʻzaning 5–6 chinbarg rivojlanishi davrida sepiladi. Bunda 50 litrlik idishdagi suvda fizik holda 8 kg karbomid eritiladi, keyin eritmani 100 litrlik idishga quyib yaxshilab aralashtiriladi. Aralashma bir gektarga sepiladi. SHuningdek, «Samarqandkimyo» OAJda ishlab chiqilgan FSSS oʻgʻitini 14 l yoki KAS oʻgʻitini 7 l/ga meʼyorda ishlatish yaxshi samara beradi.

Suspenziyani sepishda traktorlarga oʻrnatilgan bochkalarga 200 litr toza suv va 100 litr tayyorlangan onalik (маточный) eritmasi quyilib yaxshilab aralashtiriladi va bunda 300 l/ga miqdordagi ishchi eritmasi qoʻllaniladi. Keyingi suspenziya rivoji orqada qolgan maydonlarda gʻoʻza gullash davri boshida sepiladi. Bunda gektariga fizik holda 10 kg karbomid ishlatiladi yoki FSSS oʻgʻitini gektariga 21 litr, KAS oʻgʻitini 9 litr ishlatiladi. Suspenziya sepishda tayyor aralashma bilan suvning miqdori har gektariga 300 litrdan kam boʻlmasligi zarur.

Suspenziyani ertalab va kechqurun havo harorati 20–25 oS dan oshmagan paytda sepish tavsiya qilinadi. Havo iliq va bulutli kunlarda suspenziyani kun davomida sepish mumkin. Moʻl va sifatli paxta hosili yetishtirishda mineral oʻgʻitlar va suvdan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Keyingi yillarda azotli oʻgʻitlarning yillik meʼyorini shonalash davrida bir yoʻla berish tavsiya etilmoqda. Bunda gʻoʻza shonaga kirguncha dalada ikki marta kultivatsiya, bir marta chuqur Yumshatish oʻtkazilgan boʻlishi kerak, shu bilan birga azotli oʻgʻit yillik meʼyorini toʻliq berishda oʻgʻit egatning 14–16 sm chuqurligiga tushishi va

oziqlantirilgandan so'ng peshma-pesh sug'orish lozim.

Unumdorligi past hamda mexanik tarkibi yengil, qumloq tuproqli maydonlarda g'o'za shonaga kirganda gektariga sof holda 70–75 kg azot va 30–50 kg kaliy berish yaxshi samara beradi. Bu gektariga 210–225 kg ammiakli selitra yoki 150–160 kg mochevina va 55–90 kg kaliy xlorid o'g'iti o'simlikning 20–22 sm yoniga, 14–16 sm chuqurlikka beriladi.

G'o'za gulga kira boshlagan paykallarda azot va fosforli o'g'itlar gektariga sof holda 70–75 kg azotni (ammiakli selitra 210–225 kg) va 40–50 kg sof holda fosforni (ammofos 80–100 kg yoki oddiy superfosfat 280–350 kg yoki suprefos 170–215 kg) tashkil qiladi. O'suv davridagi oziqlantirishni oxirgi muddati g'o'za gullay boshlashining 10-kuniga to'g'ri kelishi kerak, bundan kechiksa g'o'zaning rivojlanish davri cho'zilib ketishi mumkin.

Sug'orish muddati va me'yorlarini hududning suv bilan ta'minlanganligi, tuproqning xususiyati va sizot suvlar chuqurligini qat'iy hisobga olib belgilash lozim. Bu g'o'zaning durkun o'sib-rivojlanishi, ertaki va mo'l hosil olinishini ta'minlaydi. Sug'orish suvidan va tuproqdagi zaxira namlikdan samarali foydalanish o'tkaziladigan agrotexnik tadbirlar sifatiga bog'liq bo'lib, tavsiya etilgan agrotexnik tadbirlar tizimini qo'llash natijasida dalalarni begona o'tlarsiz Yumshoq holatda saqlanishi hamda g'o'zaning yaxshi o'sib-rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish suv sarfini qisqartirishga yordam beradi.

G'o'zaning amal-o'suv davrida o'simlikning suvga bo'lgan ehtiyoji mos ravishda o'simliklarni suvga bo'lgan o'rtacha kunlik talabi markaziy mintaqalarda quyidagi miqdorda o'zgarib boradi: shonalashda gektariga 18–20, gullash boshlanganida 35–40, ommaviy gullashda 50–55, hosil to'plash boshlaganida 75–80, yoppasiga hosil to'plashda 85–90, ko'saklar ochilishi boshlanganda 45–50, yoppasiga ochilganda 25–30 m<sup>3</sup> ni tashkil etadi. Paxta maydonlarining suvga bo'lgan o'rtacha kunlik talabi amal-o'suv davri davomida markaziy mintaqaga nisbatan shimoliy mintaqalarda 10–15% kamroq, janubiy mintaqalarda esa 15 foizgacha ko'proq bo'lishi mumkin.

Sug'orishda birinchi suvni mexanik tarkibi yengil tuproqlarda 10–12, o'rta va

og'ir tuproqlarda 16–18 soatdan oshirmasdan sug'orishni tashkil etish lozim. Bunda har 10–15 gektar maydonga 4–6 kishidan iborat suvchilar guruhini birlashtirib, sug'orishni kecha Yu-kunduz uzluksiz tashkil etish lozim. Ayniqsa, tungi sug'orishning samarasi katta.

Joriy yilda respublikamiz bo'yicha 20 dan ortiq istiqbolli va rayonlashgan g'o'za navlari ekishga tavsiya etilgan, ulardan: 18 tasi tezpishar va 6 tasi o'rtapishar bo'lib, ularga qo'llaniladigan barcha agrotexnik tadbirlar joriy yil sharoitidan kelib chiqqan holda intensiv ravishda olib borilishini talab etadi.

Tezpishar navlarga agrotexnik tadbirlardan oziqlantirish, sug'orish va ishlov berish ishlari o'rtapishar navlarga nisbatan jadallashtirilgan usulda o'tkazishni taqozo etadi. Tuproq iqlim sharoitidan kelib chiqib S-6524, «An-Bayovut–2», «Ibrat», «Xorazm–127», «Mehnat», ayniqsa, «Buxoro–6» va «Buxoro–102», «Buxoro–8» navlarini gullaguncha sug'ormaslik va mavsum davomida 0-2 (3)-1 tizimida 3–4 marta sug'orish tavsiya etiladi. Tezpishar «Namangan–77», «Omad», S-4727, S-8284, «Do'stlik–2», «Ko'paysin», «CHimboy–5018» navlarni ertaroq kam me'yorlarda sug'orish talab etiladi.

Suvdan samarali foydalanishda sug'orishni sharbat usulida o'tkazish muhim ahamiyatga ega. SHarbat usuli qo'llanilganda go'ng g'o'zaga oziqa berishi bilan birga mulcha vazifasini bajarib, suvni bug'lanishini kamaytiradi, tuproqqa singishini yaxshilaydi, namni saqlaydi. Buning uchun har bir konturning suv kiradigan joyiga sharbat uchun xandaq qazilib, sug'orishdan 5–7 kun oldin 1:1 nisbatda suv bilan go'ng aralashtirilib jija tayyorlanadi. Bunda toza mol go'ngi, chirigan go'ng yoki kompostdan foydalanish yaxshi samara beradi.

Sug'orishga sarflanadigan suvning miqdori yengil (qumli va qumoq) tuproqlarda g'o'za gullagunga qadar gektariga 600–700 m<sup>3</sup>, o'rta va og'ir tuproqlarda g'o'za gullagunga qadar 700–800 m<sup>3</sup> atrofida belgilanadi. Sug'orishning davomiyligi yengil tuproqlarda g'o'za gullagunga qadar 10–12, o'rta va og'ir tuproqlarda 12–14 soatdan oshmasligi kerak. Sizot suvlar sathi 0,5–2 metrgacha bo'lgan tuproqlarda suv miqdori 10–15 foizgacha kamaytiriladi.

Egatlar uzunligini qisqartirish yo'li bilan dalalarni bir tekisda namlanishiga va

suvdan tejamli foydalanishga erishish mumkin. SHuni hisobga olib, suvni yaxshi o'tkazadigan o'tloq va yengil qumoq tuproqlarda g'o'za qator oralari 60 sm bo'lganda egatlar uzunligi 50–60 metrdan, suvni sust shimadigan, og'ir tuproqli yerlarda 70–80, qator oralari 90 sm bo'lgan paykallarda esa tegishli ravishda 80–90 metrdan oshmasligi kerak.

Qator oralari 60–90 sm va nishabligi katta paykallarda sug'orishni barcha egatlar orqali o'tkazish, qolgan joylarda bir jo'yak tashlab (qator oralatib) sug'orish maqsadga muvofiqdir. Sug'orishda oqova suvni imkon qadar kamroq chiqarishga erishish lozim. Oqova suvni 1–2 soatdan ortiq chiqarmasdan sug'orish suvdan foydalanish koeffitsiyentini oshiradi. Dalani uzunasiga bir tekisda namlash uchun egatlar uzunligini belgilab o'qariqlar olinadi va sug'orishni dalaning etak qismidan boshlab, Yuqori qismida tugallashga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

### **3-BOB. MODDIY RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI**

#### **3.1. Agrar ishlab chiqarishni modernizatsiyalash sharoitida moddiy-texnika resurslaridan oqilona foydalanib, mahsulot tannarxini pasaytirish**

Mamlakatimiz iqtisodining barcha sohalaridagi kabi qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ham 2014 yil ulkan Yutuqlarga boy bo'ldi. Sohadagi Yuksalishlarni Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasida alohida e'tirof etdi.

Masalan, 2000 yilda bu boradagi ko'rsatkich 30,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda faqatgina 16,8 foizni tashkil etdi. Bu avvalambor iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlarning, mamlakatimiz bir paytlardagi agrar respublikadan bosqichma-bosqich ravishda sanoati rivojlangan zamonaviy davlatga aylanib borayotganining yaqqol tasdig'idir. Qishloq xo'jaligining o'zida ham keng ko'lamli o'zgarishlar va sifat jihatdan yangilanishlar Yuz bermoqda.

YUrtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xom ashyo va eksportbop mahsulot bo'lmish paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni bir necha barobar ko'paytirish imkonini berdi.

Jumladan, birgina ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish natijasida qishloq joylarda 90,9 mingta yangi ish o'rinlari yaratildi. Qishloqlarimiz tobora chiroy ochib borayotgani, aholi uchun barcha qulayliklarga ega uy-joylar qurilayotgani nafaqat mamlakatimiz ahli, balki jahon hamjamiyati tomonidan ham e'tirof etilmoqda.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida fermer xo'jaligining iqtisodiy samaradorligi bir nechta ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi. Buning uchun yalpi mahsulot, ishlab chiqarish harajatlari va xo'jalik faoliyati natijasida olingan foyda asos bo'ladi. Rentabellik darajasini foydaning ishlab chiqarish harajatlariga nisbati orqali topilishini inobatga oladigan bo'lsak, ravshan bo'ladiki, foydaning darajasi Yuqori va harajatlarning nisbatan past darajada bo'lishi talab etiladi.

Qishloq xo'jaligi ekinlari jumladan bug'doy doni yetishtirishda moddiy-texnika resurslaridan foydalanib ilmiy asoslangan agrotexnika chora-tadbirlari ishlab chiqilgan va amaliyotga tavsiya etilgan. Unga ko'ra o'z muddatlarida tuproqni ekishga tayyorlash, ekish, o'g'itlash, sug'orish, zararkunandalardan himoya qilish zarur bo'ladi. Bundan tashqari ish haqi, ijtimoiy ajratmalar, amortizatsiya fondiga to'lovlar ham mavjud. Bularning barcha ma'lum darajadagi harajatlarni talab qiladi.

Islohotlarning hozirgi bosqichida, erkin narxlar amal qiluvchi bozor iqtisodiyotida moddiy-texnika resurslarining narxлари va o'z navbatida bug'doy ishlab chiqarish harajatlari ob'ektiv tarzda o'sib borishini keltirib chiqaradi.

Buloqboshi tumanidagi «Saxovat» fermer xo'jaligida bug'doy yetishtirishda moddiy-texnika resurslariga harajatlari asosan me'yor darajasida sarflangan bo'lib, uning tarkibi va salmog'ini o'zgartirish Yuqorida bayon etilgan ilmiy asoslangan agrotexnikaning buzilishiga va hosildorlik hamda yalpi hosil ko'rsatkichlarining yomonlashib, pasayishiga olib keladi. Bundan kelib chiqadiki, bug'doy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun ichki imkoniyatlarni ishga solish talab etiladi.

Avvalo xo'jalik joylashgan hududdagi tuproq bonitet baliga mos holdagi bug'doy hosildorligi darajasiga erishish kerak. G'alla yetishtirishdagi mexaniziyalashgan ishlar uchun sarflanayotgan harajatlarni qisqartirish uchun lizing asosida haydov traktori olish kerak. Xo'jalik hodimlarining manfaatdorligini oshirish natijasida ham bug'doy yetishtirish darajasi ancha ortadi. Buning uchun olingan bug'doy hosildan ish haqi sifatida yanada ko'proq miqdorda tarqatilishi kerak.

Bug'doy yetishtirishning agrotexnik talablariga amal qilgan holda ishlab chiqarishni tashkil etish zaruriyati ob'ektiv qonuniyat asosida o'sib boradigan ishlab chiqarish harajatlarini sarflashni taqozo etadi. SHunday ekan, ishlab chiqariladigan yalpi mahsulot miqdorini harajatlardan Yuqoriroq darajada o'sib borishiga erishish fermer xo'jaligida moddiy-texnika resurslaridan foydalanib iqtisodiy samaradorligini oshirib borishning asosiy omilidir.

Etishtirilayotgan don mahsulotlari samaradorligini Yuksaltirish uchun ishlab chiqarish va boshqarish harajatlari va resurslarni tejalishini ta'minlaydigan ishlarni, tadbirlarni oqilona amalga oshirish zarur. Buning uchun mehnatni oqilona tashkil etish, ishlab chiqarish, hosilni yig'ishtirib olish, saqlash jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, ishlab chiqarish vositalaridan to'liq va samarali foydalanish, yangi texnika, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ishchi-xizmatchilar moddiy va ma'naviy rag'batlantirilishini izchillik bilan amalga oshirish kerak.

G'allachilik moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanish maqsadida mazkur xo'jalikda faoliyat ko'rsatayotgan barcha a'zolarining ishlab chiqarishga bo'lgan munosabatlarini bozor talablari asosida tubdan o'zgartirish lozim. YA'ni, ular mahsulot yetishtirish, yig'ishtirib olish, saqlash va sotish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni vaqtida, oqilona amalga oshirishga alohida e'tibor berishlari kerak.

Yuqorida ta'kidlangan barcha tadbirlar vaqtida, sifatli amalga oshirilishi natijasida o'simlikchilik mahsulotlari miqdori ko'payib, ularning samaradorligi Yuksalishi ta'minlanadi.

G'allachilikda barcha harajatlarni amalga oshirish natijasida asosiy va qo'shimcha mahsulotlar olinadi. Mazkur tarmoqda bug'doy doni asosiy, somoni esa qo'shimcha mahsulotdir. Qo'shimcha mahsulot miqdorini ma'lum koeffitsiyentga ko'paytirish orqali shartli donga aylantirish mumkin.

«Saxovat» fermer xo'jaligida moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanib bug'doy hosildorligini oshirish uchun bir qancha ishlar bajarish talab qilinadi. Jumladan, xo'jalikning ekin maydonlarida Buloqboshi tuproqlar guruhiga tegishli bo'lgan o'rtacha bonitet ballariga ega bo'lsada, nisbatan past hosildorlikka 51,2 ts/ga erishilgan. Bu ko'rsatkichni Yuqori agrotexnologiyalarni qo'llagan

holda kamida 60 ts/ga bo'lishiga erishish kerak.

Sug'orma dehqonchilik sharoitida suv resurslari bug'doy yetishtirishda Yuqori hosildorlikning eng asosiy omillaridan biri hisoblanadi. «Saxovat» fermer xo'jaligida sug'orish uchun suv bilan ta'minlanganlik darajasi yaxshi emas. 2012 yilda kanaldan olinadigan suv me'yordagidan ko'ra ancha kam bo'lgan. Bu holat bug'doy agrotexnikasining buzilishiga, 1-2 marta erta bahordagi sug'orishdan qolishiga olib kelgan. 2014 yilga kelib suv ta'minotida muammo bo'lmagan. SHu nuqtai nazardan kanaldan suv tortish uchun qo'shni fermerlar bilan SIU ga uYushgan holda hamkorlikda suv inshootlarini kapital ta'mirlab, suv ta'minotini yanada yaxshilash kerak.

Bug'doy yetishtirish samaradorligini oshirishning omillaridan biri xo'jalikda mineral va organik o'g'itlardan ilmiy asoslangan tavsiyalarga asosan foydalanishga harakat qilishdir. Ushbu tavsiyalarga rioya qilinganda yalpi hosil miqdori 20-22 foizgacha ortishi mumkin. Bundan tashqari xo'jalik a'zolarining va mahalla fuqarolarining uylaridan organik o'g'itlarni chiqarib, xo'jalik ekin maydonlariga solish kerak.

Bug'doy hosilining turli kasallik va zararkunandalar tomonidan nobud bo'lishiga yo'l qo'ymaslik zarur. SHuning uchun o'simliklarni himoya qilish xizmatidan unumli foydalanish, o'z vaqtida biolaboratoriya bilan shartnomani tuzish va ijrosini nazorat qilish zarur.

«Saxovat» fermer xo'jaligida ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlashning yaxshilanishi bug'doy yetishtirishda samaradorlikni oshirishning omillaridan biri hisoblanadi. CHunki harajatlar tarkibida texnik xizmat ko'rsatish uchun harajatlar katta ulushni tashkil etmoqda. YAqin yillar ichida o'z texnika vositalarining ulushini ko'paytirish kerak.

### **3.2 A.Abdupattayev fermer ho'jaligida moddiy texnika resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish omillari.**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun uning moddiy-texnika bazasini talab darajasida shakllantirish lozim. Mazkur masalaga xar bir qishloq xo'jalik korxonasi o'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib o'zi katta e'tibor berishi kerak. Demak, barcha fermer xo'jaliklari o'zlariga kerak bo'lgan moddiy-texnika resurslarini sotib olishlari, ta'mirlab, butlashlari, yig'ishlari xamda qurishlari mumkin. Yangi qishloq xo'jalik texnikalarini kimyoviy vositalarni, yoqilg'ilarni, ozuqalarni esa ularni ishlab chiqaruvchi korxonalardan bevosita o'zlari xamda birjalar, auktsionlar yordamida zavodlardan sotib olishlari mumkin

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida iqtisodiy samaradorlikka turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Mazkur omillarni aniqlash va ularni ta'sir etish darajasini aniqlash muxim ahamiyatga egadir. Xar qaysi xo'jalikni biror maxsulot turini yetishtirishga ixtisoslashtirish masalalari ana shu iqtisodiy samaradorlikka ta'sir ko'rsatuvchi omillar xarakteridan kelib chiqib xal etiladi. SHu nuqtai nazardan. A.Abdupattayev fermer xo'jaligida maxsulot ishlab chiqarish xolatini va moddiy texnika resurslaridan samarali foydalanish asosida iqtisodiy samaradorlikka erishishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida fermer xo'jaligini oxirgi uch yillik faoliyatini iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida atroflicha o'rganib chiqdik. Fermer xo'jaligi tabiiy iqlim, yer sharoitlari va suv bilan ta'minlanganlik darajasidan kelib chiqib asosan paxta va don yetishtirishga ixtisoslashtirilgan.

Fermer xo'jaligida qishloq xo'jalik maxsulotlari yetishtirishda davlat buYurtmasi asosida paxta va bug'doy uchun shartnomaviy munosabatlar asosida faoliyat tashkil etilgan bo'lib, avvalo xo'jalikda asosiy ekin xisoblangan paxta yetishtirishni iqtisodiy samaradorligi oxirgi uch yil mobaynidagi bu soxadagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar atroflicha o'rganib chiqildi.Fermer xo'jaliklari moddiy-texnika resurslari bazasini mustaxkamlashda samarali yo'llardan, usullardan foydalanishlari, kamroq xarajat qilib, ko'proq foyda olishga intilishlari kerak.

Lekin bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida fermer xo'jaliklarining moddiy-texnika bazasini mustaxkamlashda ayrim salbiy xolatlar sodir bo'lmoqda. Ma'lumki, markazdan ma'muriy usulda rejali boshqarilgan iqtisodiyot sharoitida barcha moddiy-texnika resurslari sovxozlarga, kolxozlarga asosan markazlashtirilgan xolda bepul berilgan. Ularning qiymatlari qishloq xo'jalik maxsulotlarining baxolari: soliqlar, subsidiya, dotatsiya va boshqa mexanizmlar yordamida undirib olingan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa bu masala asosan fermer xo'jaliklarining mablag'lari xamda investitsiyalar evaziga amalga oshirilmoqda. Lekin hozirgi kunda fermer xo'jaliklarining mablag'lari bu masalalar uchun yetarli emas. Sababi – bir tomondan, sanoat maxsulotlarining baxosi qishloq xo'jalik maxsulotlarining baxolaridan juda katta farq qilmoqda, ya'ni ular o'rtasidagi ekvivalentlikka rioya etilayotgani yo'q, ikkinchi tomondan, qishloq xo'jalik korxonalarini sotayotgan maxsulotlarining xaqini o'z vaqtida ololmayotirlar, uchinchi tomondan esa tarmoqqa yetarli miqdorda investitsiya sarflanayotgani yo'q. Bunday xolatga chek qo'yish uchun respublika xukumati tomonidan sezilarli yordam berilmoqda. Bu yordam, investitsiya, kredit shakllarida amalga oshirilib, ular xisobidan qishloq xo'jalik korxonalarining moddiy-texnika resurslari shakllantirilmoqda.

qishloq va suv xo'jaligi vazirligining ma'lumotlari bo'yicha, tarmoqda traktorlarning, kombaynlarning, Yuk mashinalarining umumiy soni so'nggi yillarda kamayib bormoqda.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligidagi mashinalar, traktorlar xamda mexanizmlar soni quyidagi sabablar ta'sirida qisqargan:

- ular jismoniy xamda ma'naviy eskirganligi sababli xisobdan chiqarilgan;
- ortiqcha xisoblangan ayrim qishloq xo'jalik texnikalari talabgorlarga sotilgan, foydalanish uchun ijaraga berilgan;
- xo'jaliklarning mablag'lari yetishmasligi sababli yangi, serunum texnikalar sotib olishning kamligi.

Lekin Yuqoridagilarga asoslangan xolda qishloq xo'jaligidagi mashina, traktorlar, mexanizmlarning soni faqatgina kamayishga Yuz tutgan, deb xulosa

chiqarish unchalik to'g'ri bulmaydi. CHunki xo'jaliklar bozor iqtisodiyoti sharoitida ularni tanlash imkoniyatlariga ega. SHuning uchun so'nggi yillarda fan-texnika taraqqiyoti natijasida baquvvat, serunum, samarali texnikalarni ma'lum miqdorda sotib olmoqdalar. CHunonchi, «T-28x4», «Magnum» traktorlarini, «Keys» kombaynlarini sotib olmoqdalar. Bu jarayonda davlatning ko'magi katta.

qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash maqsadida kimyoviy vositalarni, jumladan, mineral o'g'itlarni sotib olishga aloxida e'tibor berilmoqda. CHunki ular tuproq unumdorligini oshirib, ekinlar xosildorligi Yuksalishini, yovvoyi o'tlar xamda zararkunandalarni ozaytirib, mexnat va mablag' sarflari kamayishini, maxsulot sifati yaxshilanishini ta'minlaydi.

Mineral o'g'itlarni sotib olinishini kamayishi bu, avvalo, bor talabdan kelib chiqadi. CHunki, mineral o'g'itlarning erkin narxlari ancha Yuqori bo'lganligi uchun ularni ortiqcha sotib olishning zaruriyati yo'q. SHuning uchun xo'jaliklar kerak bo'lgan miqdordagi mineral o'g'itlarni sotib olishmoqdalar. SHuning bilan birgalikda qishloq xo'jalik sub'ektlari ularning xar bir kilogrammidan vaqtida xamda sifatli foydalanishga katta e'tibor qaratmoqdalar.

qishloq xo'jaligining mustaxkam moddiy-texnika bazasini yaratish bilan birgalikda ulardan to'liq va samarali foydalanishga erishish lozim.

qishloq xo'jaligini rivojlantirishda, uning samaradorligini Yuksaltirishda moddiy-texnika resurslarining, fan-texnika taraqqiyotining xamda ilg'or texnologiyalarning axamiyati beqiyos. Ularsiz qishloq xo'jaligida ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi.

Fan-texnika taraqqiyoti natijasida moddiy-texnika resurslarining yangi, unumli, chidamli, sifatli turlari yaratiladi. Ulardan oqilona foydalanish tufayli yangi, samarali texnologiyalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga joriy etiladi. Ulardan foydalanish darajasini, samaradorligini tegishli ko'rsatkichlar tizimi yordamda aniqlash lozim.

Tarmoqda moddiy-texnika resurslaridan foydalanishning xozirgi darajasi, samaradorligi talabga to'liq javob bermaydi. CHunki ular o'rtasidagi mutanosiblikka xozircha erishilgani yo'q. Xo'jaliklarning ular bilan

ta'minlanganlik darajasi pastroq, texnika resurslarining ishga yaroqliligi xam talab darajasida emas, bunday vositalar erkin baxolarining o'sish darajasi Yuqori.

Ilg'or, samarali texnologiyalar qishloq xo'jaligining xamma soxalarida barcha omillarni e'tiborga olgan xolda joriy etilishi lozim. Moddiy-texnika resurslari, fan-texnika taraqqiyoti maxsuli bo'lgan vositalar xamda ilg'or texnologiyalar

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslarini iqtisodiy mazmuni, mohiyati va barpo etilishi hamda foydalanilishi bo'yicha ma'lum tartibda turkumlashtirish mumkin. Ular barpo etilishi bo'yicha; ishlab chiqarishga munosabati bo'yicha; ishlab chiqarishda qatnashishiga ko'ra; takror ishlab chiqarilishi bo'yicha guruhlashtirilgan

Asosiy vositalar deb ishlab chiqarish jarayonida ko'p marta qatnashib, o'zining qiymatini mahsulotga qisman o'tkazadigan vositalarga aytiladi. Asosiy vositalar tarkibiga: traktorlar, kombaynlar, kishlok xo'jaligi mashinalari, avtomashinalari, bino-inshootlar, ko'p yillik daraxtzorlar, ishchi va mahsuldor hayvonlar va boshqa uzoq muddat foydalaniladigan vositalar kiradi. Asosiy vositalardan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlariga: asosiy vositalarning yillik o'rtacha qiymati, fond bilan ta'minlanganlik, fond bilan qurollanish, fond sig'imi, fond qaytimi, rentabellik kabilar kiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligidagi barcha korxonalarining asosiy maqsadi – mavjud resurslardan oqilona, samarali foydalanish natijasida talabni qondiradigan miqdorda sof foyda olishdir. Sof foyda massasining ko'payishi fermer xo'jaligining kelajakda rivojlanishini, ishchi-xizmatchilarning moddiy manfaatdorligi oshishini ta'minlaydi.

Biz tadqiqotlarimiz natijasida olgan ma'lumotlarimizga asosanib quyidagi xulosalarni taklif etamiz. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslarini iqtisodiy mazmuni, mohiyati va barpo etilishi hamda foydalanilishi bo'yicha ma'lum tartibda turkumlashtirish mumkin. Ular barpo etilishi bo'yicha; ishlab chiqarishga munosabati bo'yicha; ishlab chiqarishda qatnashishiga ko'ra; takror ishlab chiqarilishi bo'yicha guruhlashtirilgan

Asosiy vositalar deb ishlab chiqarish jarayonida ko'p marta qatnashib, o'zining qiymatini mahsulotga qisman o'tkazadigan vositalarga aytiladi. Asosiy vositalar tarkibiga: traktorlar, kombaynlar, kishlok xo'jaligi mashinalari, avtomashinalari, bino-inshootlar, ko'p yillik daraxtzorlar, ishchi va mahsuldor

hayvonlar va boshqa uzoq muddat foydalaniladigan vositalar kiradi. Asosiy vositalardan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlariga: asosiy vositalarning yillik o'rtacha qiymati, fond bilan ta'minlanganlik, fond bilan qurollanish, fond sig'imi, fond qaytimi, rentabellik kabilar kiradi.

Fermer xo'jaligida iqtisodiy samaradorlikni ifodalovchi yakuniy ko'rsatkich rentabellik bo'lib, fermer xo'jaligining foydasini jami ishlab chiqarish harajatlariga nisbatini foiz hisobida olinganidir. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining hozirgi bosqichida takror ishlab chiqarishni ta'minlay oladigan optimal rentabellik darajasi 45-50%ni tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.

Xo'jalikning moddiy-texnika bazasi qanchalik mustahkam (u zamonaviy mashinalar, traktorlar, kombaynlar, stanoklar) ta'minlangan bo'lsa, barcha ishlar shu texnika vositalari yordamida bajarilishi ta'minlanadi va samaradorlik oshadi.

Buloqboshi tumanidagi Abdupattaev Abduvaxob fermer xo'jaligida 2012 yildan 2014 yilgacha iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari biroz yaxshilangan. Lekin rentabellik xaligacha optimal darajaga yetgani yo'q.

Fermer xujaligida iqtisodiy samaradorlikni kutarilishini taminlash kerak. SHu maksadda kuyidagi chora-tadbirlarni utkazilishiga aloxida etibor berilishi lozim:

- YAAlpi maxsulotni ishlab chikarish xarajatlariga nisbatan ustun darajada usishini taminlash.
- Ishlab chikarish resuslaridan samarali foydalanishni Yulga kuyish asosida maxsulot tannarxini pasaytirish choralarni kurish.
- modernizatsiyalash asosida xujalikni moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash va ishlab chikarishni tula mexanizatsiyalashga erishish.
- Ishlab chikarishga yangi va samarali texnologiyalarni joriy etish, ya'ni paxta va g'alla yetishtirishga innovatsion agrotexnologiyalarni tadbiq etish.
- Kishloq xo'jaligida irrigatsiya va melioratsiya xamda ishlab chikarishni mexanizatsiyalash, kimyolashtirish va dexkonchilik madaniyatini oshirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni samarali hal etilishini ta'minlash.

Fermer xo'jaligida iqtisodiy samaradorlikni ifodalovchi yakuniy ko'rsatkich

rentabellik bo'lib, fermer xo'jaligining foydasini jami ishlab chiqarish harajatlariga nisbatini foiz hisobida olinganidir. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining hozirgi bosqichida takror ishlab chiqarishni ta'minlay oladigan optimal rentabellik darajasi 45-50%ni tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.

Xo'jalikning moddiy-texnika bazasi qanchalik mustahkam (u zamonaviy mashinalar, traktorlar, kombaynlar, stanoklar) ta'minlangan bo'lsa, barcha ishlar shu texnika vositalari yordamida bajarilishi ta'minlanadi va samaradorlik oshadi.

Buloqboshi tumanidagi A.Abdupattayev fermer xo'jaligida asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalarini atroflicha o'rganish va taxlil etish asosida quyidagi fikr va muloxazalarga keldik:

1. Buloqboshi tumanidagi A.Abdupattayev fermer xo'jaligida ish Yuritishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini yaxshi o'zlashtirilganligi, boshqaruv yaxshi yo'lga qo'yilgani, asosiy vositalardan unumli foydalanishi, oxirgi yillarda kontraktatsiya shartnomalarini to'liq bajarayotganligi, xo'jalikda sug'orma suvlaridan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, xo'jalikni debitorlik va kreditorlik qarzlarning me'yordan oshmaganligi va bularning natijasida tahlil davrida 18,9% dan 24,6% gacha rentabellikka erishayotganligi ijobiy natijalarni ta'minlamoqda.

2. Jumladan, A.Abdupattayev fermer xo'jaligida paxta yetishtirishda 2012-2014 yillarda iqtisodiy samaradorlik yaxshilangan. Rentabellik darajasi tahlil etilayotgan davrda 12,6% dan 13,8% gacha ortgan. Ammo bu ko'rsatkich hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini ta'minlay oladigan 30-35%lik darajadan ancha pastdir.

3. Buloqboshi tumanidagi A.Abdupattayev fermer xo'jaligida yalpi mahsulot hajmini ishlab chiqarish harajatlariga nisbatan ustun darajada oshirish evaziga bir birlik paxta yetishtirish harajatlarini kamaytirib, iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlari mavjud.

4. Xo'jalikka yetkazib berilayotgan asosiy vositalar va moddiy-texnika resurslarning bahosini xo'jalik yetkazib berayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga ekvivalent mutanosib tarzda qayta ko'rib chiqilishi kerak. Chunki

moddiy-texnika resurslari bahosi o'ta Yuqori bo'lib, bu o'ziga xos qiyinchiliklarni Yuzaga keltirmoqda.

5. A.Abdupattayev fermer xo'jaligida paxta va don yetishtirish bo'yicha samarali texnologiyalarni qo'llash asosida ishlab chiqarishning rentabellik darajasini optimal darajaga yetkazish chora-tadbirlarini ko'rish zarur. Masalan magnit bilan sug'orish hosildorlikni 5-8%gacha oshirish imkonini beradi.

6. Ho'jalikda moddiy-texnika resurslari uchun sarflanuvchi ishlab chiqarish harajatlarning tarkibi yaxshilashga ham alohida e'tibor berish lozim. Bunda moddiy harajatlarning ulushini oshishiga va ular tarkibini yaxshilanishiga e'tiborni kuchaytirish zarur.

7. Ho'jalikda uzoq muddatli ijaraga olingan yer uchastkasining meliorativ holatini yaxshilash, mineral va mahalliy o'g'itlardan samarali foydalanish hamda dexqonchilik madaniyatini oshirish asosida tuproq unumdorligini muntazam oshirib borish choralarini ko'rish lozim.

8. Istiqbolda fermer xo'jaligida qo'shimcha asosiy vositalarni olib, qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasini tashkil etish hamda bu jarayonga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etilishiga ham e'tiborni kuchaytirish zarur. Bu fermer xo'jaligini iqtisodiy jihatdan mustaqilligini oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlanishi imkoniyatini beradi.

9. Xo'jalik boshlig'i fermer xo'jaligini tashkiliy-iqtisodiy asoslaridan xabardor bo'lgan holda harajatlarni oqilona taqsimlash kerak. Moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanish uchun xo'jalikka maxsus ma'lumotli kadrlarni ham ishga jalb qilish lozim.

10. Moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanish uchun mexanizator kadrlarning malakasini oshirish, ularni rag'batlantirishni rivojlan-tirish zarur.

11. Mavjud moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanish uchun qo'shni fermerlarga texnik xizmat ko'rsatishni mukammal shartnomalar asosida yo'lga qo'yish zarur.

Yuqoridagi barcha chora-tadbirlarni o'zida jamlagan holda «A.Abdupattayev» fermer xo'jaligida moddiy-texnika resurslaridan foydalanib, bir birlik paxta

yetishtirish harajatlarini 15-20% gacha kamaytirish hamda iqtisodiy samaradorlikni yana 20-22% gacha oshirish mumkin. Buning uchun Yuqorida tavsiya qilingan tadbirlarni o'zida jamlagan fermer xo'jaligini rivojlantirish dasturi tuzish tavsiya etiladi.

bozorini rivojlantirish zarur.

Kelajakda tarmoqning moddiy-texnika resurslaridan foydalanish darajasini xamda iqtisodiy samaradorligini Yuksaltirish uchun barcha chora-tadbirlarni vaqtida, sifatli amalga oshirish zarur. Yuqoridagilardan kelib chiqib, Paxtaobod tumanidagi Ernazarpolvon fermer xo'jaligida moddiy texnika resurslaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish o'ylaymizki yaxshi natijalar beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2010y
2. O'zbekiston Respublikasining xo'jalik Yurituvchi sub'ektlarning shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risidagi qonuni. Toshkent. O'zbekiston-1998 y.
3. O'zbekiston Respublikasining yer kodeksi. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risidagi qonun xujjatlari. 1-kitob. T. 1999 y.
4. O'zbekiston Respublikasining fermer xo'jaligi to'g'risidagi qonuni. (2004 yil 26 avgustdagi yangi nashri) T. 2004 yil.
5. O'zbekiston Respublikasining davlat yer kadastrini to'g'risidagi qonuni. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risidagi qonun xujjatlari. 3-kitob. Toshkent.1999 y.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 dekabrda «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarining qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi FP-4058 sonli Farmoyishi. Xalq so'zi 2008 yil 29 dekabr
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 oktyabrda «Fermer xo'jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari maydonlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PF-3782 sonli Farmoyishi. Xalq so'zi 2009 yil 23 noyabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 4 mayda «Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-4296-sonli Farmoni. // Xalq so'zi, 2011 yil 5 may.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktyabrda «O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF 4478-sonli Farmoni. Xalq so'zi. 23.10.2012 y
10. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda

- 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam. – T.: “O'zbekiston”, 2011.
11. I.A.Karimov. «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi». Xalq so'zi 13.02.2009 yil.
  12. I.A.Karimov. «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqorolik jamiyatini barpo etish-ustivor yo'nalishdir». Xalq so'zi 28.01.2010 y.
  13. I.A.Karimov. «Asosiy vazifamiz–Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada Yuksaltirishdir». Xalq so'zi 30.01.2010 y.
  14. I.A.Karimov. BMT sammitining ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqi Xalq so'zi 21.09.2010 y.
  15. I.A.Karimov. «Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi». Xalq so'zi 13.11.2010 y.
  16. I.A.Karimov. «Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini Yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi» mavzusidagi ma'ruzasi. Halq so'zi. 22.01.2011 yil.
  17. I.A.Karimov. «2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi» Xalq so'zi. 20.01.2012 y
  18. I.A.Karimov. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. Xalq so'zi. 18.01.2013 y.
  19. I.A.Karimov «O'zbekistonning o'z istiqlol va tarqqiyot yo'li» T.Uzbekiston 1992 yil
  20. I.A.Karimov. «O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li». Toshkent. O'zbekiston. 1993 yil 269 b.
  21. I.A.Karimov «O'zbekistonning o'z istiqlol va tarqqiyot yo'li» T.O'zbekiston 1992 yil
  22. I.A.Karimov «Iqtisodiy islohat ma'suliyatli bosqich» T.O'zbekiston 2003 yil
  23. I.A.Karimov. «O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida». Toshkent 1995 yil.
  24. I.A.Karimov «O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod siyosat-mafkura» T.O'zbekiston 1996 yil

25. I.A. Karimov. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». Toshkent. O'zbekiston. Toshkent – 2000 y.
26. Karimov I.A. «**Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari**» Toshkent «O'zbekiston» 2009 yil.
27. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi. Fermer xo'jaligini Yuritish uchun yer uchastkalarini berishda tanlov g'olibini aniqlash tartibi to'g'risida Nizom. Toshkent. 2005 yil.
28. Olimjonov O., Farmonov T va boshqalar. «Fermerlik faoliyatining xuquqiy va moliyaviy asoslari». T., Universitet 2005 yil.
29. A. Abdullaev va boshqalar. «Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish istiqbollari». Respublika ilmiy-amaliy anjumanining maqolalar to'plami. AQXI. Andijon 2007 yil
30. J. Xaydarov. Fermer xo'jaliklarida mahsulot yetishtirish tizimini takomillashtirish. Agroilm jurnali. 2010 y. 3-son
31. M.N. Maxmudov, Z.A. Jumaev. I.A. Karimovning 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent–2012 yil
32. Q. Bo'stonov. Qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash va innovatsion rivojlanishning mahsulot raqobatbardoshligiga ta'siri. Agroilm. 1(21) son, 2012 yil.
33. X.X. Komolov «Fermer xo'jaliklarini texnika vositalari bilan ta'minlash samaradorligini oshirish yo'llari» iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent-2012 yil
34. G'.Do'stmurodov. Agrar sohada tadbirkorlik samaradorligini oshirish. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. №6. 2012 yil.
35. A. Babadjanov. Qishloq xo'jaligida innovatsion loyixalarni joriy qilishning noan'anaviy usullari. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. №6. 2012 yil.
36. Q. Bo'stonov. Qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash va innovatsion rivojlanishning mahsulot raqobatbardoshligiga ta'siri. Agroilm. 1(21) son, 2012 yil.

37. B.Qo'shaqov. Fermerlik-mustaqillik bergan ne'mat. Agrobiznes jurnali. 7-son, 2012 y.
38. A. Abdullaev, O. SHERmatov, B. Raxmonova. O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda kichik biznes xususiy tadbirkorlikni tutgan o'rni va ahamiyati Andijon mashinasozlik institutidagi konferentsiya materiallari. 2013 y
39. A. Abdullaev, O. SHERmatov, B. Raxmonova. O'zbekiston fermerlari kengashini tashkil etilishi agrar isloxlarni chuqurlashtirishning yangi bosqichidir Andijon mashinasozlik institutidagi konferentsiya materiallari. 2013 y
40. A. Abdullaev, O. SHERmatov. Qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash sharoitida fermer xo'jaligi mahsuloti raqobatbardoshligini oshirish omillari. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston bozor islohotlari ilmiy tadqiqot instituti. 2013 y
41. F. Muminova Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jaroyonida ishlab chikarish va xizmat Ko'rsatish soxalaridagi nisbatning o'zgarishi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. №2. 2013 yil.
42. Farmonov J. Fermer xo'jaliklarini barkoror rivojlantirishning yangi imkoniyatlari. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. №4. 2013 yil.
43. Andijon viloyati qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi hamda xududiy fermerlar kengashining 2008-2012 yillardagi yillik hisobotlari hamda boshqa ma'lumotlari.
44. Davlat statistika ko'mitasi "Statistik ma'lumotlar to'plami" Toshkent 2013y
45. Buloqboshi tumanidagi A. Abdupattayev fermer xo'jaligining 2012-2014 yillardagi biznes rejalari, yillik hisobotlari, shartnomalari hamda shu kabi boshqa ma'lumotlari.

### **Internet saytlari**

[www.tsuye.uz](http://www.tsuye.uz).- Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

[www.pravo.uz](http://www.pravo.uz). O'zbekistan respublikasi qonunchilik bazasi.

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) – O'zbekiston OO'MTV qoshidagi elektron ko'tubxona.

[www.lex.uz](http://www.lex.uz) -Qonunlar va me'yoriy xujjatlar milliy bazasi.

